



MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT



# milliy tiklanish

Ujmasiy-siyosiy gazeta  
1996-yil 10-oydan  
boshlab nashr etiladi.  
milliytiklanish2022@  
uzqsh.uz

№ 23  
(121) 2023-yl  
26-iyul, chorshanba  
Adasi -  
7 331



Prezident tashrifi  
oddiy tashrif  
emas edi

2

Sarhadsiz internet  
tahdididan qanday  
himoyalaniish  
mumkin?



3

## UYG'ONISH PALLASI

2023-YIL YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDAGI TUB BURILISHLARGA ASOS SOLINGAN YIL SIFATIDA TARIXGA KIRADI.

Yangi tahrirdagi  
Konstitutsiyani  
qabul qilish  
bo'yicha umumxalq  
referendumi,  
shuningdek,  
muddatidan  
oldin o'tkazilgan  
O'zbekiston  
Respublikasi  
Prezidentligiga  
saylov natijalari  
milliy taraqqiyotimiz  
naqadar to'g'ri yo'lda  
ekani ko'rsatyapti.



3s

4  
TAHRIR QIROLI  
YOXUD MAYOQ  
KO'TARGAN USTOZ

5  
«AL-JOME' AS-  
SAHIH»NING  
ARAB VA INDONEZ  
TILLARIDAGI  
NUSXASI  
KELTIRILDI

O'zbekiston  
Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi  
huzuridagi Imom  
Buxoriy xalqaro ilmiy-  
tadqiqot markazida  
muhaddislar sultoni  
qalamiga mansub  
«Al-Jome' as-sahih»  
asarinin arab va  
indonez tillaridagi uch  
jildli nusxasi taqdimoti  
o'tkazildi.

6  
TEGMA KUYASAN,  
ANA-A KUYDING...

Bosh miya  
to'qimalarining  
zararlanishi, ayrim  
tadqiqotchilar fikriga  
ko'ra, birdaniga emas,  
 balki oradan 15-20 yil  
o'tgachgina namoyon  
bo'la boshlaydi.

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

### CHIN MUHTOJ BILAN BOQIMANDANI ADASHTIRMAYLIK



1994

-yili chop etilgan  
«Altinoluk» jurnalining  
94-sonida «Usmonli  
sultanat rahbari Fotih  
Sulton Mehmetxon davrida  
bir musulmon kishi  
ko'chalarni aylanib yillik  
zakotini berish uchun faqir  
bir kishini izlab topolmabdi.  
Shundan keyin zakotning  
qiymatiga teng miqdordagi  
pulni hamyonga solib,  
Jag'alo'g'lidagi bir daraxtga  
osib qo'yibdi va ustiga:  
«Musulmon birodarim,  
shuncha izlaganimga  
qaramay, yurtimizda zakot  
olishga muhtoj kishini  
topmadim. Agar muhtoj  
bo'lsang, ikkilanmay shuni  
ol», deb yozib qo'yibdi.  
Ammo hamyon uch  
oygacha o'sha daraxtda  
osilganicha qolib ketibdi.  
Yuqoridagi xabarni o'qib,  
zakot berishning ham,  
olishning ham o'z tartibi  
borligi haqida o'ylab qoldim.  
Va, bugun ham «daraxtga  
osilgan hamyonga  
cho'zilmaydigan» qo'lni  
topish mumkinmikan,  
degan o'ylar boridim.  
Balki mumkindir, ammo  
jamiyatimizda kundan  
kunga keng tarqalayotgan

«boqimandalik virusi» paytida  
bu biroz mushkul, nazaringda.  
Ma'lumki, Prezidentimiz  
Shavkat Mirziyoyev «2021  
- 2030-yillarda O'zbekiston  
Respublikasi aholisini  
ijtimoiy himoya qilish tizimini  
takomillashtirish chora-  
tadbirlari to'g'risida»gi  
farmoyishini imzoladi.  
Bundan tashqari, aholini  
ijtimoiy himoya qilish Milliy  
strategiyasi qabul qilinib,  
unda 17 ta natijaga erishish  
rejasi belgilab qo'yildi.  
Bundan ko'zlangan asosiy  
maqsad esa boqimandalikni  
kamaytirib, faollikni oshirish  
ekani qayd etildi.  
Tan olaylik, avvallari  
muhtoj qatlam vakillarining  
aksariyatiga turli sabab  
va bahonalalar bilan nafaqa  
tayinlanmaslik holatlariga  
yo'l qo'yilgan. Yoki ijtimoiy  
ta'minot uchun kam mablag'  
ajratilgan. Ammo keyingi  
yillarda ushbu maqsadlarga  
yo'naltiriladigan mablag'  
miqdori bir necha barobarga  
oshirildi. Birgina kam  
ta'minlangan nafaqa oluvchi  
oilalar soni oxirgi 3 yilda to'rt  
barobarga oshib, 1,9 millionga  
yetdi.

(Davomi 6-betda)

### KARVON XATAR BILMAS MARD BO'LSA SARBON



Yomonlik izlamang, yomonlik topmang,  
Quyoshli yuziga bulutlar yopmang,  
U hukmi Xudodir, gunohga botmang,  
Yuzi kulib turgan odamning,  
Yuzi kulib turgan odamning.

Bir nigoh tashlasa chamanlar ungay,  
Xo'mraygan qoyalar, xarsanglar kulgay,  
Toshqinlar tingaydir, to'lqinlar tingay,  
Ko'zi kulib turgan odamning,  
Ko'zi kulib turgan odamning.

Eng oliy maqom-ku lafzi halollik,  
Dushmani do'st bo'lar, qo'rqqay yomonlik,  
Har bir jon, har bir ruh topgay omonlik,  
So'zi kulib turgan odamning,  
So'zi kulib turgan odamning.

Karvon xatar bilmas mard bo'lsa sarbon,  
Bezavol yurt borar kutib ol jahon,  
Ortidan yetib ko'r, ey, tanbat zamon,  
Izi kulib turgan odamning,  
Izi kulib turgan odamning.

©Farida Afro'z

### ERTAGA KECH BO'LISHI MUMKIN!

MAKTABDA MEDIASAVODXONLIK  
ORQALI YOSHLARNI  
TARBIYALASH MUMKINMI?

9-iyul kuni O'zbekiston uchun muhim siyosiy voqea  
yuz berdi - Prezident saylovi o'tdi. Unda ishtirok  
etib, ichki va tashqi munosabatlarni kuzatib, ayniqsa,  
yangi saylangan Prezident Shavkat Mirziyoyevning  
lavozimga kirishishga bag'ishlangan tantanali  
marosimdagi nutqini eshitib, uning bir jihati  
e'tiborimni tortdi.  
«Biz demokratiya va ochiqlik siyosatini izchil  
davom ettirib, konstruktiv muxolifat faoliyatini, so'z  
va matbuot erkinligi, fuqarolarning axborot olish,  
undan foydalanish va tarqatishga bo'lgan huquqlarini  
kafolatlaymiz», - dedi Prezident. Iqtibosdagi ikki  
vergul orasidagi gaplar o'zaro bog'liq, albatta.  
Biroq biz undagi «so'z va matbuot erkinligi,  
fuqarolarning axborot olish, undan foydalanish va  
tarqatishga bo'lgan huquqlari»ga e'tibor qarab, bu  
boradagi muammolarni biroz tahlil qilishga qaror  
qildik. Bilamizki, demokratik o'zgarishlar hech bir  
mamlakatda oson amalga oshmagan. Bizda ham bir  
tekis kechmayapti.

(Davomi 5-betda)

### O'N BIR YOSHLI BOLA EYNSHTEYNNI ORTDA QOLDIRDI

7s

KO'RFAZ MAMLAKATLARI  
BILAN UMUMIY  
LOYIHALAR PORTFELI

## 20 MILLIARD DOLLARDAN ORTDI

2s





Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq Konstitutsiyaviy sud sudyalari qayta saylanish huquqisiz 10 yil muddatga saylanishi belgilanyapti. Ilgari Konstitutsiyaviy sud sudyalari 5 yilga, keyin 10 yil muddatga saylanar edi.

# FRAKSIYADA

## PREZIDENT TASHRIFI ODDIY TASHRIF EMAS EDI



«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 19-iyul kuni Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi yetakchilarining birinchi sammiti mazmun-mohiyati muhokama qilindi.

Alisher Qodirov Davlatimiz rahbarining Prezident saylovidan keyingi ilk xorijiy safari muqaddas dinimiz markazi hisoblangan Saudiya Arabistoniga uyushtirilganida juda katta ramziy ma'no borligini ta'kidladi. – Ayniqsa, taraqqiyotimiz milliy qadriyatlarimiz asosiga qurilishini bosh maqsad bilgan partiyamiz uchun bu tashrif juda muhim ahamiyatga ega, – dedi partiya yetakchisi. Ma'lumki, Markaziy Osiyo va Ko'rfaz mintaqasi xalqlari o'rtasidagi munosabatlar uzoq tarixga ega. Yaqin savdo aloqalari, mushtarak qadriyat va an'analar, muqaddas islom dinimiz ularning asosini tashkil etadi. Ayniqsa, Movarounnahr va Arabiston o'rtasidagi tarixiy aloqalarni rivojlantirishda buyuk mutafakkir va alloma bobolarimizning xizmatlari beqiyosdir. «Barcha muhaddislarining peshvosi» – ulug' alloma Imom Buxoriy ana shunday siymolardan biridir. Umuman, musulmon dunyosidagi oltita buyuk muhaddisning ikki nafari mintaqamizda tug'ilib kamol topgan. IX asr boshida Abbosiylar davlatining poytaxtida faoliyat ko'rsatgan «Donishmandlar uyi» akademiasining 90 foiz olimlari, ya'ni 200 nafardan

ortig'i Markaziy osiyolik bo'lgani va ota-bobolarimiz o'zlarining bebaho ilmiy asarlarini aynan go'zal va mukammal arab tilida yaratib, butun dunyoda shonshuhrat qozonganlar. Hozirda poytaxtimizda saqlanayotgan muqaddas Mus'hafi sharif – Usmon Qur'oni ham o'lkamiz va arab diyorlari o'rtasidagi aloqalarning qadimiy va teran ildizlarga ega ekanidan dalolatdir. Oliy darajadagi uchrashuvlarda turizm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, yurtboshimiz tomonidan «Ko'rfaz – Markaziy Osiyo» yagona vizasiz sayyohlik makoni va turistlar uchun mo'ljallangan zamonaviy klasterlarni yaratish, qo'shma turistik mahsulotlarni ko'paytirish hamda 2024-yilda Islom dunyosi turizm poytaxti, deb e'lon qilingan Xiva shahrida mintaqalarimiz yetakchi sayyohlik operatorlari forumini o'tkazish taklifi ilgari surildi. Gumanitar yo'nalishda esa milliy madaniyat haftaliklari, madaniy meros ko'rgazmalarini tashkil etish orqali xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish lozimligi qayd etildi. Hozir O'zbekistonda yuz mingdan ziyod nodir qo'lyozmalar saqlanmoqda. Bu borada O'mon Sultonligi ko'magida poytaxtimizda yirik

loyiha amalga oshirilgani qayd etildi. Tashqi siyosatimizda muhim bo'lgan masala – Afg'onistonda tinchlikka erishish masalasi ham kun tartibidan o'rin oldi. Davlatimiz rahbari katta-katta minbarlardan turib Afg'oniston muammolariga butun dunyo e'tiborini qaratish, afg'on xalqi hayotini yengil qilishga munosib hissa qo'shish lozimligini ta'kidladilar. Chunki bu yurtda tinchlik o'rnatmasdan turib, nafaqat mintaqa, balki global xavfsizlikni ham ta'minlab bo'lmaydi. Qayd etish joizki, uchrashuvda so'nggi yillarda O'zbekistonning Ko'rfaz mamlakatlari bilan aloqalari yangi bosqichga ko'tarilgani mamnuniyat bilan ta'kidlandi. Bugungi kunda yurtimiz bilan ushbu mintaqada davlatlari o'rtasida amalga oshirilayotgan umumiy loyihalar portfeli 20 milliard dollardan ortdi. Shu o'rinda Davlatimiz rahbari tomonidan biznes vakillari ishtirokida Qo'shma investorlar kengashini ta'asis etish va uning dastlabki yig'ilishini Samarqandda o'tkazish tashabbusi ilgari surilganini aytish joiz. Sammit ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Markaziy Osiyo – Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi» formatidagi navbatdagi oliy darajadagi uchrashuvini Samarqand shahrida o'tkazish taklifini ham qo'llab-quvvatladilar. Alisher Qodirovning ta'kidlashicha, Davlatimiz rahbarining ushbu tashrifi nafaqat ma'naviy, balki iqtisodiy nuqtayi nazardan ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shundan so'ng fraksiya a'zolari kun tartibiga kiritilgan masalalarni muhokama qilishga kirishdilar. Jumladan, «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi

qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilindi. Ma'lumki, shu yilning 30-aprelida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Prezidentining «Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi va uning ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan ushbu loyihaga ko'ra, Konstitutsiyaviy sudga yangi vakolatlar berilmoqda. Jumladan, endi O'zbekiston Respublikasi referendumiga olib chiqiladigan masalalar dastlab Konstitutsiyaviy sudda ko'rib chiqiladi va uni Konstitutsiyaga muvofiqligi aniqlanadi. Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq Konstitutsiyaviy sud sudyalari qayta saylanish huquqisiz 10 yil muddatga saylanishi belgilanyapti. Ilgari Konstitutsiyaviy sud sudyalari 5 yilga, keyin 10 yil muddatga saylanar edi. Yana bir o'zgarish: Konstitutsiyaviy sud barcha qonun loyihalarini ishlab chiqib, Qonunchilik palatasiga kiritish huquqiga ega edi. Endi Konstitutsiyaviy sud faqat o'ziga tegishli bo'lgan qonun loyihalarini ishlab chiqadi va o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritadi. Konstitutsiyaviy sud sudyalari pedagogik faoliyat bilan birga ijodiy ishlar bilan ham shug'ullanishga ruxsat berilmoqda. Fraksiya a'zosi Muxtabar Husanova qonun loyihasiga munosabat bildirar ekan, kiritilayotgan o'zgarishlar juda ham muhimligini ta'kidladi. – Konstitutsiyaviy sud ushbu qonun loyihasini tayyorlashda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi bilan yaqin hamkorlik o'rnatdi. Ishchi guruh tomonidan bildirilgan ko'plab takliflar e'tiborga olinib, hal

qilinishi lozim bo'lgan masalalar yechildi, – dedi M.Husanova. Yig'ilishda «O'Ichash vositalarini qiyoslashdan o'tkazish sohasiga xususiy sektor jalb qilinishi munosabati bilan «Metrologiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihasi ham qizg'in muhokama qilindi. Tashabbuskorlarning qayd etishicha, ushbu qonun loyihasini ishlab chiqishdan maqsad metrologiya xizmatlarini ko'rsatish sohasiga xususiy sektorni keng jalb qilish hamda bu boradagi davlat tashkilotlarining ekslyuziv huquqlarini bekor qilish orqali mavjud monopoliyani bartaraf etishga qaratilgan. Ya'ni, loyiha bilan o'Ichash vositalarini qiyoslash xizmatlari yuridik shaxslar tomonidan ko'rsatilishiga ham ruxsat berilmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda respublikamizda amaldagi o'Ichash vositalari turkumlarning ro'yxati 315 ta pozitsiyadan iborat bo'lib, shundan 91 tasini davlat metrologiya xizmati tomonidan qiyoslashdan o'tkazilishini Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlash ko'zda tutilmoqda. Ayni paytda iqtisodiyot tarmoqlari hamda sanoatda texnologik jarayonlar talablari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda 5 mln.dan ortiq o'Ichash vositalarini qiyoslashdan o'tkazish zarurati mavjud. Muhokamalarda bu o'zgartishlarda xalqaro talablar ham e'tiborga olingani ta'kidlandi. Deputatlar mahsulot, jarayonlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi masalalarida iste'molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashishini e'tiborga olib, qonun loyihasini ikkinchi o'qishda ham ma'qulladilar.

Ravshan MAHMUDOV,  
«Milliy tiklanish» muxbiri

Kuting!



Yangi – «Ayol va siyosat» rukni ostida «Milliy tiklanish»ning chin ustuniga aylanayotgan opa-singillarimiz hayotining nozik va sirli nuqtalariga «sayohat» qiling. Tez kunda Feruza Muhammedjanova jamoasining eng ilg'orlariga so'z beramiz. Kuting...

Kelgusi sonlarda

✓ Iftixor

## Azizbek va Abdulloh singari yoshlar safi kengaysin!

Xabar qilinishicha, Shveysariyada 90 ga yaqin davlatdan 350 nafarga yaqin o'quvchi ishtirok etgan kimyo fani olimpiadasida Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari Azizbek Nazarov oltin, Shahzoda Hakimova kumush, Uchtepa tumanidagi 81-maktab o'quvchisi Abdulloh Mahmudov oltin, Toshkent shahridagi Prezident maktabi o'quvchisi Sobihjon Dilmurodov bronza medallarini qo'lga kiritishdi.



Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining ma'lum qilishicha, oltin medal olgan o'quvchi bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravari (165 mln. so'm), o'qituvchi 450 baravari (148,5 mln. so'm) miqdorida, kumush medal uchun o'quvchi 300 baravar (99 mln. so'm), o'qituvchi 250 baravar (82,5 mln. so'm) hamda bronza medal uchun o'quvchi bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari (66 mln. so'm), o'qituvchi 150 baravar (49,5 mln.) pul mukofotlari

bilan taqdirlanadi. Shuningdek, xalqaro olimpiada g'oliblari OTMlarga imtiyoz bilan grant asosida o'qishga qabul qilib, keyinchalik ta'lim muassasalarida o'qituvchi bo'lib faoliyat yuritish, lavozim maoshiga 150 foiz qo'shilib, har oylik ustama ham oladi. Ana shunday yoshlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Mahbuba KARIMOVA,  
«Milliy tiklanish» muxbiri

(Boshlanishi 1-betda)



**Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishishga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida keyingi yetti yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar va eng asosiysi, ularni ro'yogba chiqarish uchun qanday faoliyat olib borishimiz bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi.**

Prezident nutqida deputatlar va senatorlar oldida juda katta mas'uliyat borligi ta'kidlanib, avvalgidan ko'ra, ko'proq g'ayrat va shijoat bilan ishlash, mavjud huquqiy me'yoriy bazani yangilash bo'yicha keng ko'lamli ishga start ham berildi deyish mumkin. Darhaqiqat, qonunchilik jarayonining sifati va samarali faoliyati bevosita jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Qabul qilinayotgan qonunlarning ijtimoiy voqelikda o'z ifodasini topishi, ularning jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy munosabatlarning mazmun va mohiyatiga mos kelishi nihoyatda muhimdir. Parlament oldida turgan vazifalardan yana biri bu yangilangan Konstitutsiyadan kelib chiqib, amaldagi qonunlarimizni Bosh Qonunimizga muvofiqlashtirish hisoblanadi. Ma'lumki, konstitutsiyaviy islohotlar davrida yurtdoshlarimizdan qonunlarni takomillashtirish bo'yicha juda ko'p asosli takliflar kelib tushdi. Ularni yana bir bor tahlil qilgan holda xalqchil qonunlarning qabul qilinishi, albatta bizni oldimizga qo'ygan maqsad sari yaqinlashiradi. Shu o'rinda qabul qilingan qonunlarning amalda ishlashi, ustuvor bo'lishi va qonun oldida hamma bir ekanligini ta'minlash masalasida ahamiyati yuqori ekanini aytish joiz. Zero, qonunlarga bo'lgan munosabatimizni o'zgartira olsak, albatta, ko'zlangan taraqqiyotga, maqsadga erishamiz.

Ma'ruzada ta'kidlanganidek, «Deputatlar turli siyosiy partiyalarga mansub bo'lishi, turli g'oya va qarashlar tarafdori bo'lishi mumkin, ammo maqsad bir. Barchamizni Vatan, el-yurt birlashtiradi». Ishonchim komilki, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, O'zbekiston taraqqiyotining muhim pallasida davlat va jamiyat o'z birligini namoyon etadi. Albatta, ertangi kun bugungi natijalar asosiga quriladi. Agar keyingi 6 yilni chuqurroq tahlil etib, real raqamlarni qiyoslasak, natijalar ko'lami yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Masalan, o'tgan yillarda 84 turdagi soliq imtiyozlari bekor qilinib, individual imtiyozlar berish amaliyotidan voz kechildi. Bu shubhasiz tadbirkorlik uchun suv va havodek zarur edi. Mazkur tizim o'rni yangisi joriy etilib, soliqlarni to'lash muddatini o'zgartirish, kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berish vakolati esa xalq deputatlar mahalliy Kengashlariga o'tkazildi. Ekspertlarning fikricha, paxta, bug'doy va monopoli korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan 27 turdagi yuqori likvidli tovar, xomashyo hamda materiallarni faqat birja savdolari orqali sotish mexanizmi joriy etilgani ham eng og'riqli illat – korruptsiyani kamaytirishga xizmat qildi. Mutaxassislarning yozishlaricha, 2017 – 2022-yillarda tijorat banklari tomonidan 82 milliard dollar ekvivalentida kreditlar ajratildi. Agar 2016-yilda banklar tomonidan 6 milliard dollarlik kreditlar berilgan bo'lsa, 2022-yilda bu

2017 – 2022-yillarda tijorat banklari tomonidan **82 MILLIARD DOLLAR** ekvivalentida kreditlar ajratildi. Agar 2016-yilda banklar tomonidan 6 milliard dollarlik kreditlar berilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich **16,5 MILLIARD DOLLARGA YETDI.**

ko'rsatkich 16,5 milliard dollarga yetdi. Davlat-xususiy sheriklik asosida esa yana bir soha – energetika, sog'liqni saqlash va boshqa infratuzilma loyihalariga jami 8 milliard dollardan ortiq mablag' jalb qilindi. Pirovardida, 2017 – 2022-yillarda sanoat mahsulotlari 1,4 barobar, qishloq xo'jaligi 1,2 barobar, bozor xizmatlari va qurilish ishlari 1,9 barobarga oshdi. Agrar sektor bu biz uchun hayot-mamot masalasidir. Qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakliga o'tilgani, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan choralar natijasida mahsulot yetishtirish yillik o'rtacha o'sish sur'ati 2,5 foizni tashkil etdi. 394,3 ming gektar maydon qayta foydalanishga kiritildi, 256,3 ming gektarda esa suv tejovchi zamonaviy texnologiyalar, 146,8 ming gektarda egiluvchan quvurlar joriy etildi. Ma'lumki, butun jahonda bo'lgani kabi O'zbekiston ham energetika

ta'minoti masalasida bir qator muammolarga duch kelmoqda. Buning turli sabablari bor, albatta. Shuning uchun ham 2030-yilga borib iqtisodiyot tarmoqlari va aholining tabiiy gaz yillik iste'molini hozirgi 56 milliard metr kubdan 70 milliard metr kubga, elektr energiyasi iste'molini esa 70 milliard kilovattsoatdan 138 milliard kilovatt soatga yetkazish ishlari olib borilyapti. Yana bir nozik masala, bu suv va uning iste'moli bilan bog'liqdir. Mutaxassislarning yozishicha, yaqin kelajakda Markaziy Osiyo ham suv bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Xususan, 2025-yilda yurtimizda jami suv miqdori 2022-yildagi 55,7 milliarddan 54 milliard kub metrga, 2030-yilga borib esa 49,5 milliard kub metrgacha kamayishi mumkin. Shularni e'tiborga olib, agrar sohaga suvni yetkazish va taqsimlash infratuzilmalarini modernizatsiyalash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2030-yil yakuniga qadar 1 million gektar maydonga suv tejamkor texnologiyalar joriy qilinadi, 644 ming gektar yer lazerli tekislanadi. Har bir hududning yerosti suvlarining gidroekologik xaritasini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish choralari ko'riladi. Yana bir muhim masala borki, bu aholini, ayniqsa, yoshlarni yashash joylari bilan ta'minlash masalasidir. Agar kelgusi 7 yilda aholi o'sishi hisobga olinsa, yiliga o'rtacha 14 million yoki jami 98 million kvadrat metr uy-joyga talab borligini ko'ramiz. Mazkur talabni qondirish uchun esa mavjud eski va avariya holatidagi uylar o'rinda yangi ko'p qavatli uy-joylar barpo etish, ya'ni renovatsiyani amalga oshirish bo'yicha alohida tartib joriy etiladigan bo'ldi. Albatta, 2030-yilgacha belgilangan vazifalar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash jarayoni qonunchilik bilan yanada mustahkamlanishi lozim. Jumladan, birgina keyingi yetti yilda yalpi ichki mahsulotimiz hajmini 160 milliard dollarga yetkazishdek katta marra biz deputatlarga ham mas'uliyat yuklaydi. Chunki bu juda ulkan maqsad. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, bu yo'lda aniq hisob-kitoblarimiz, real imkoniyatlarimiz bor. Tabiiy boyliklarimiz, mehnat resurslarimiz, intellektual va ma'naviy salohiyatimiz, ish tajribamiz yetarli.

**Nodir TILAVOLDIYEV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

✓ Ogohlik

# Sarhadsiz internet tahdididan qanday himoyalalanish mumkin?

Taniqli adibimiz Chingiz Aytmatov: «Tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Endi sodir bo'ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ko'p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fojiodir», deb yozganida bugungi globallashuv jarayonida insonlar ongi, tafakkuriga mafkuraviy ta'sir o'tkazish ko'lami haddan ziyod kengayib, misli ko'rilmagan darajada tezlashib ketishini nazarda tutgan bo'lsa ajab emas. Bugun ijtimoiy tarmoqlarda ma'naviy, axloqiy tubanlikni targ'ib etuvchi sahifalar soni bir necha 100 milliondan oshib ketgani ma'naviy tahdidlar xavfi nechog'li jiddiy ekanligidan dalolatdir. Inson mustaqil fikrga, yillar sinovidan o'tgan milliy qadriyatlariga, sog'lom dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmas ekan, ma'naviy tahdidlarga qarshi tura olishi qiyin.

Afsuski, hali ongi to'liq shakllanmagan, yaxshi bilan yomonni farqlay olmaydigan yoshlarimiz ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilyotgan har qanday ma'lumotlarni haqiqat deb qabul qilmoqdalar. Ular ongidagi g'oyaviy bo'shliqdan maqsadli foydalanayotgan g'arazli kimsalar esa buzg'unchilik, begunoh odamlar qonini to'kish kabi jinoyatlarni avj oltirib, tinch aholi orasida nizo chiqarishga harakat qilayotirlar. Ma'lumki, bugunga kelib, dunyo aholisining 90 foizdan ziyod ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqda. Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko'ra, hozirda odamlarning ijtimoiy tarmoqqa sarflayotgan vaqti 3 soatni tashkil etar ekan. Bir qarashda xavotirga o'rin yo'qdek. Bu vaqt mobaynida turli hududlarda yashaydigan yaqinlar, tanishlar, qarindoshlar o'zaro muloqot qilayotgandir, deyshingiz mumkin. Albatta, bunday muloqotlarning ijobiy tomonini inkor etib bo'lmaydi. Biroq ijtimoiy tarmoqlarda faqat ezgu niyatli insonlarga o'tirmasligi biz kattalardan farzandlarimiz tarbiyasiga yanada e'tiborli bo'lish lozimligini ko'rsatadi. Ma'lumotlarga qaraganda, dunyo yoshlari, jumladan, mamlakatimiz yoshlari ham asosiy vaqtining taxminan 50 foizini virtual muloqotga sarflar ekan. Bu esa jonli muloqotga bo'lgan ehtiyojni pasaytiraypti, albatta. Ma'lumki, bunday muloqot real voqelikdan ayri holda kechadi va inson o'zining hissiy kechinmalarini to'la tasvirlab bera olmaydi. Bu esa insoniy tuyg'ularning yo'qolib borishiga sabab bo'lmoqda. Yaqin o'tmishda insonlar bir-birlariga «uyga keling» deb taklif qilishgan bo'lsa, endilikda «telegram kanalim»ga,

«Facebookdagi sahifam»ga kiring, degan takliflardan ajablanmay ham qo'ydik. Shu nuqtayi nazardan shiddatli global o'zgarishlar davrida yoshlar ongu shuurini ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan yot g'oyalar, zararli ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu o'qituvchilar, ma'naviyat targ'ibotchilari, ota-onalardan hushyor va ogoh bo'lishi, yosh avlodning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularning tafakkurida sog'lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish borasidagi ishlar

ko'lamini yanada kengaytirishni talab etadi. Shu ma'noda, ma'naviy sohada quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, yoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchilariga aylantirish lozim. Turli qarash va fikrga ega bo'lgan yoshlarning o'ziga xos orzu-intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oyalar – Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, qonun ustuvorligi, xalq roziligi, jaholatga qarshi ma'rifat, innovatsion taraqqiyotni ta'minlash barcha yurtdoshlarimiz uchun birlamchi maqsadga aylanishiga erishish,

milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlash kerak. Internet tizimidan foydalangan holda uz domenidagi saytlarni ko'paytirish hamda yoshlarbop ruknlarni ochish va ular orqali milliy g'oyani singdirish, yoshlar ma'naviyatini shakllantirishga qaratilgan ilmiy loyihalar joriy etish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash zarur. Zero, mamlakatimizda Uchinchi Renessansning amalga oshishi har jihatdan yoshlarimizning bilimi, intellektual salohiyati, ijtimoiy tarmoqlardagi yot g'oyalarga qarshi shakllangan mafkuraviy immunitetiga bog'liq.



**Shavkat RO'ZMETOV,**  
partiya Markaziy kengashi bosh mutaxassisi

Kuting!

**AZAMAT ZIYO:**

# PREZIDENT

**NUTQINING ASL MOHIYATI NIMADA EDI?**

Kelgusi sonlarda



# Tahrir QIROLI

YOXUD MAYOQ KO'TARGAN USTOZ

## 1991

-yilning boshlarida Ikrom akani ilk bor «Xalq so'zi» gazetasi tashkil etilib, katta adadda chiqqan boshlagan paytlarda do'stim, taniqli jurnalist, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi Shuhrat Umirovning maslahati va tavsiyasi bilan gazetaning shu paytlardagi Bosh muharriri, zabardast jurnalist Ahmadjon Muxtorovning subhatidan o'tib, navbatchi kotib vazifasiga ishga kelgan kunimdan taniganman. Shu kuni gazeta mas'ul kotibi Turg'un aka Nazarovning xonasida u kishidan ertangi sonni qanday sahifalash va uning tuzilishi (maketi) yuzasidan saboq olib turganimda, xonaga Ahmadjon Muxtorov bilan yana bir kishi kirib keldi. Darrow sahifani o'rtaga qo'yishib, bittadan sigaret tutatgan, harflari yoyilib ketgan bir maqolani tahrir qilishga tushib ketishdi. Bilishimcha, bu gazeta bosmaxonasidan musahhihlar uchun chiqarilgan xomaki sahifa bo'lib, unda mashhur bir arbobning yarim sahifalik maqolasi bor edi.

Maqolaga ancha-muncha qalam tekizilgandan keyin, A.Muxtorov Turg'un Nazarovga «maqolaning boshlanishini birinchi betga, davomini ikkinchi betning boshiga joylashtiring», deya topshiriq berdi. O'zi bilan kirib kelgan odamga esa «keyingi sahifani ham bir ko'zdan kechirib qo'yasiz», deganicha chiqib ketdi. Xonada qolgan notanish odam, xuddi yonida mening borligimni birinchi bor ko'rayotgandek, «bardammisiz, otaganam?!», deya qo'l berib ko'rishdi. Turg'un aka meni u kishiga tanishtira turib, «yangi xodimimiz, kecha «shef» ning subhatidan o'tib, bugun ish boshladi», dedi. U kishi «yangi bo'lsa, hali sinashga ulguramiz», deb chiqib ketdi. Turg'un aka bu odamning Sanoat va qurilish bo'limi boshlig'i, Ikrom O'tbosarov ekanini aytdi. Men esa hozir ismini bilganim – Ikrom akaning «sinashga ulguramiz» degan gapining asl mag'zini chaqolmay ovvora edim. Chunki bo'limda ishlamasam, vazifam esa u kishiga taalluqli bo'lmagan ishlar – gazeta sahifalarining ko'rkam, bexato bo'lishi, sarlavha va matn harflarining bir-biriga uyg'unligi, dolzarb axborot hamda mavzularni unutilib qoldirmaslik va yana bir qancha mas'uliyatli topshiriqlarni bajarish edi. Ko'p o'tmay Ikrom akaning nafaqat gazetada yetakchi jurnalist, balki jamoa orasida obro'li, dalkash inson, samimiy do'st, shogirdlarining bilimdon va ayni paytda qattiqqo'l ustoz ekanligini bilib oldim. Gazeta tashkil qilingan kundan boshlab katta adadda, qatorasiga haftada besh kun loyillab chiqib turardi. Bu yaxshi-ku, darsiz, lekin bu degani – har kuni betinim ish, maqolalarning yamlanmay yutilishi, tonggacha «vyorstka» (o'zbekchasi «sahifalash» bo'lsa kerak), haftalab xizmat safarlari, davlatimiz mustaqilligi arafasidagi fuqarolarning dardlari aks etgan shikoyat hamda arizalarni o'rganib, javob tayyorlash, ularni iloji boricha gazeta sahifalarida yoritish, sobiq Ittifoq va O'zbekiston Respublikasi Markazqo'mi plenulari, majlislari va syezdlari materiallarini bekam-u ko'st berib borish va boshqa vazifalar – xodimlar zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklar edi. Ayniqsa, «O'zTAG» degan tashkilotdan keladigan axborotlarga juda hushyor turish talab etilar, chunki ular yuqoridan kelgan axborot va materiallarni ushlab turib-turib gazeta yopilishi arafasida uzatib qolishardi. Oradan hafta – o'n kun o'tib, Bosh muharrir huzurida bo'lib o'tadigan haftalik, ba'zan kunlik «letuchka»larda

qatnashib, garchi salomlashib, yaqindan tanishmagan bo'lsam-da, bo'lim boshliqlari va xodimlar bilan tanishib oldim. Men hozirgacha faxrlanib, USTOZLARIM va SAFDOSHLARIM, deya baralla aytishim mumkin bo'lgan insonlar – rahmatlik Ahmadjon Muxtorov, Anvar Jo'raboyev, Abdulkarim Rahimberdiyev, Ikrom O'tbosarov, Azim Suyun, Tohir Mirhodieyev, Yo'ldosh Ismoilov, Ismat Toshhev, Abdusamat Yo'ldoshev; tirik afsonalar Norbob Shakarov, Shuhrat Umirov, Habibulla Olimjonov, Jaloliddin Safoyev, Muxtarama Ulug'ova, Ismat Xudoyorov, Faxriddin Parpiyev, Abdunabi Boyqo'ziyev, Abdunabi Aliqulov, Mavjuda Xolmatova, Erkin Botirov, Otabek Mannonov, Ibrohim Jiyanov, Bahodir Ostanaqulov, Oybek Rahimov va hozircha ismlari xotiramdan faromush bo'lib turgan, bir oiladek inoq bo'lib ishlashgan markaziy tahririyat va viloyatdagi muxbir xodimlarimiz edi. Bundan tashqari, korrektura va mashina-byuroda ishlagan opa-singil qizlarimizning (garchi ayrimlarining ismlari yodimdan ko'tarilgan bo'lsa-da) barchalarini hali-hanuz eslab turaman. Endi sekin-asta, ba'zan men ulardan ayrim o'zimga yaqinroq bo'lib qolgan akaxonlarni u yoq bu yoqqa tamaddi qilishga, ba'zan esa ularning ichidan menga yaqinroq munosabatda bo'lib qolganlari meni tushlikka taklif qilib qoldirdi va shu tariqa jamoadagi hayotim o'troqlasha boshladi. Oradan bir-ikki oy o'tib, ularning sharofati bilan «Leningrad – 32» ko'chasidagi asosiy korpusda faoliyat olib boruvchi boshqa gazeta va jurnallarda ishlaydigan o'rtloqlar bilan ham til topisha bordim. Tez orada «Qishloq hayoti»dan Saidolim Haydarov, Mirodil Abdurahmonov, «Toshkent oqshomi»dan Hakimjon Yunusov, «Turkiston»dan Mirza Abdullayev, «Ovozi tojik»dan Abdumannop Doniyorovlar bilan do'stlashib, ulfat darajasigacha yetdik va hozirgacha ular bilan oilaviy do'stona munosabatdamiz. Shularning ichida Ikrom akaga juda yaqin inson, o'sha paytlardagi «Qishloq hayoti» gazetasi muxbiri S. Haydarov bilan tanishishimiz voqeari hali-hanuz esimdan chiqmaydi. Aniq esimda, 1991-yil mustaqillikdan keyin, oradan bir-ikki oy o'tib, sovuq kunlar boshlanishi arafasi edi. Men endigina navbatchi kotiblikdan tahririyatning Xatlar bo'limi muxbiri vazifasiga ishga o'tgan kezlarim edi. Ish kuni yakunlanishiga bir necha daqiqa qolganda, do'stim Sh.Umirov ichki tarmoqdan telefon qilib, Sanoat bo'limiga chiqishim zarurligini aytdi. Ish vaqti tugashi bilan kirsam, u yerda Ikrom aka, Yo'ldosh aka, Hakim Sattoriy, Shuhrat va men tanimaydigan, boshiga o'ris shapka kiyib olgan, o'zi ham o'risga o'xshabroq ketadigan bir yigit ham bor ekan. Men bu odamni ko'proq rus shoiri Sergey Yeseniga o'xshatdim. O'sha paytlardagi xatlar bo'limi boshlig'i, rahmatlik Yo'ldosh aka Ismoilov menga peshvoz chiqib, qandaydir bayrammikin, yoki kimningdir tug'ilgan kunimikin, aniq esimda yo'q, har tugul, bir jiddiy sanani sabab qilib, davra stoli tashkil qilinyotganini va uch rubl pul chiqarishimni aytdi. Men bajonidil chiqarib berdim. U kishi men bergan pulni qo'lidagi boshqa yig'ilgan pullarga qo'shib, endigina ishga kelgan yosh, bir muxbiri nimalardir olib kelish uchun jo'natdi. Lekin u «ha» deganda kelavermadi. Qolganlar diqqatnafs bo'la boshladi. Oradan qirq besh daqiqa – bir soatga vaqt o'tib, haligi yigit shumshayib, ikki qo'lini burniga tiqqancha, kirib keldi. Shunda Yo'ldosh aka unga nimadir deb dakkiki bermoqchi edi, ulgurmay qoldi. Boyagi menga notanish «Yesenin aka» shartta uning qo'lidagi pulni yulib olib, g'udrangancha shasht bilan chiqib ketdida, oradan 10-15 daqiqacha vaqt o'tmay, boyagi Yo'ldosh aka aytgan narsadan ikki shishasini shaxt bilan stol ustiga taraqlatib qo'ydi. Bu paytlarda mustaqillikdan oldin, M.Gorbachev zamonida boshlangan «suxoy zakon» amalda bo'lib, aka topib kelgan narsa «anqoning urug'i» edi. Shu alfozda

qisqa davra qizigandan qizidi va orada akaning «Qishloq hayoti» gazetasi muxbiri Saidolim Haydarov ekanligi ma'lum bo'ldi. Bilsam, Saidolim aka Ikrom O'tbosarov bilan azaldan yaqin aka-uka, qadrdon do'st, «Qishloq hayoti» gazetasi ancha vaqt yelkama-yelka ishlashgan kasbdoshlar bo'lib, bu safar mehmonga kelgan ekan. Ularning har ikkalasi fe'l-atvoridagi yaqin o'xshashlik tufayli, keyinchalik Saidolim aka bilan ham qadrdon bo'lib ketdik. O'sha paytlarda xatlar bo'limiga korxonalaridan, tashkilotlardan, fuqarolardan juda ko'plab shikoyat xatlari kelar, ularni borib o'rganish va masalaga oydinlik kiritish, natijasini esa gazeta sahifalarida e'lon qilish yoki

intervyu esa gazetaning ertangi sonida hech bir o'zgarishsiz, deyarli yarim sahifa bo'lib chiqdi. Bu, albatta, zargarona tahrirning cheksiz qudrati samarasi edi. Ushbu bitimim shu yerga kelganda o'z-o'zidan sarlavhaning birinchi bo'lagi tug'ildi. Boshqalarda shunday bo'ladimi, yo'qmi, bilmadim, lekin men maqola yozsam, sarlavha qo'yishga ancha qiynalaman. Chunki Ahmadjon Muxtorov ustoz sifatida doimo: «shunday sarlavha qo'yginki, u yozgan maqolaning yarim ma'nosini o'zida aks ettirsin», derdilar va bunga o'zlari hamisha rioya qilib, kutilmaganda chiroyli va keng ma'noli sarlavhalar o'ylab topardi. Menda esa ba'zan maqolani yozib tugatganimdan

bobomizning «Qalam to'ydiradi, faqat boy qilmaydi», degan o'g'itini vaqtida anglab, boshqa sohalarga o'tib ketgan shogirdlar qancha» degan ta'birlari mening o'sha paytdagi ahvolimga juda-juda mos kelardi. Ikrom aka fikrini davom ettirib: - Endi avvalgi zamonlar o'tdi. Biz bozor iqtisodiyoti bo'sag'asidamiz. Bu yog'i «o'zing uchun – o'l yetim». Sizga hech bir sohada hech kim, ayniqsa, davlat arzirli yordam bermaydi. Tejinga uy ham, qo'shimcha imtiyoz ham yo'q. To'y-ma'raka qilaman, desangiz davlatdan yordam kutmang. Hammasini o'z mablag'ingizga (agar bo'lsa) qilasiz, sotib olasiz. Bu degani – vaqtni o'tkazmay tuzukroq ish topish kerak degani. Agar rozi bo'lsangiz organga gaplashib berishim mumkin. Qancha-qancha yigitlarni to'g'ri maslahat solib, Ichki ishlarga, Mudofaa vazirligi, Qurolli kuchlar va boshqa harbiylashgan bo'linmalardan o'tkazib yubordim. Bular o'lmaydigan soha. Hamma yordam va ta'minotni qilib berishi mumkin. Ularda mablag' ham, imkoniyat ham bor. Gazetaning ahvolini ko'rib turib, u bozor sharoitida yashashi qiyin. Buning ustiga ko'rib turganingizdek, shunday zabardast va hazratli inson – Ahmadjon Muxtorovning boshiga ne-ne kunlarni solishmadi... Biz bilan sizning u kishining oldida uruqchalik ham quvvatimiz yo'q. O'ylab ko'ring, - deb qoldilar.

Men abjag'i chiqqan maqolamni ko'tarib, mashina-byuroga kirdim. Uni ko'rgan mashinistka qizimiz «Ikrom aka tahrir qilgan matnni tuzatgandan ko'ra, uni qayta yozgan afzalroq» deb to'ng'illadi. Men uning gapini tushlik payti qorin ochganda chiqadigan jahlgah yo'ydim.

shikoyatchiga yozma ma'lumotnoma yuborish zarur bo'lardi. Shunday arizalardan biri Jizzax davlat pedagogika institutidan keldi va uni o'rganish uchun men boradigan bo'ldim. O'rganish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, sotsialistik tizimdan lop etib kapitalistik hayot tarziga tushib qolganimiz, sir emaski, ko'pchilikni vahimaga sola boshlagan, hayot shu tarzda davom etadigan bo'lsa, oliy o'quv yurtining kelajagi mavhum bo'lib qolishi va uning borib-borib yopilish ketishidan cho'chigan insonlar turli xil vahimali taxminlarni yozayotgan edi. Chunki xalq, hatto ularni boshqarayotgan rahbarlar ham kapitalistik jamiyatning nazariy asoslaridan mutlaqo bexabar, kapitalizmning amaliy tajribalari to'g'risida esa, umuman tasavvur ham mavjud bo'lmagan, qo'rqinchli o'rmon hayotiga tushib qolgan edi. Men to'g'ri borib, institutning o'sha paytdagi rektori, filologiya fanlari doktori, professor Bozor O'rinboyev bilan uchrashib, u kishining bu boradagi fikrlarini eshitdim. Rektor ancha bilimdon, dunyoqarashi keng inson ekan, bunday vaziyatdan chiqishning chiroyli yo'llarini qisqa va lo'nda qilib tushuntirib berdi. Men bu uchrashuvni intervyu janrida tayyorlab, tahririyatga olib keldim. Bu mavzu asosan, iqtisodiyotga oid bo'lganligi uchun, Bosh muharrirga kiritishdan oldin, Ikrom akaning tahriridan o'tkazib olishni niyat qildim. Ikrom aka maqolani qo'lga olib, cho'ntagidan bir quti sigaret chiqardi va uni stol ustiga qo'yib, ichidan bittasini tutatib, ishga kirishdi. Aka jiddiyroq ishga sho'ng'isa, masalaning yechimini topishni sigaret tutatishdan boshlashi menga ma'lum edi. Ko'nglim xotirjam tordim. Chunki «hozir vaqtim yo'q», deb qaytarishi ham mumkin edi-da. Maqola esa juda dolzarb. Buning ustiga tushlikka yaqin vaqt qolgan. Oradan bir yarim-ikki soatga vaqt o'tgach, qaragam maqolaning qalam tegmagan biron-ta jumlasini, bo'yalmagan biror satri qolmapti. - Mana, otam, yaxshi yozibsiz, bularni tuzattiring, - deb maqolani qo'limga qaytarib berdi. Men abjag'i chiqqan maqolamni ko'tarib, mashina-byuroga kirdim. Uni ko'rgan mashinistka qizimiz «Ikrom aka tahrir qilgan matnni tuzatgandan ko'ra, uni qayta yozgan afzalroq» deb to'ng'illadi. Men uning gapini tushlik payti qorin ochganda chiqadigan jahlgah yo'ydim. «Shundoq ham qayta yozasan-ku», dedim ichimda va maqola bugun Bosh muharrirga kirishi kerakligini aytib chiqib ketdim.

keyin ham durust bir fikr kelmay turardi. 1992-yilning oxirlari, 1993-yilning boshlarida gazetamizda katta-katta o'zgarishlar vujudga kelayotganligi kamlik qilgandek, mamlakatda ham ancha katta inqirozlar yuz berib, oziq-ovqat ta'minoti, milliy valuta masalalarida muammolar paydo bo'la boshladi. Endi gazetaga Ahmadjon Muxtorov Bosh muharrir emas, muharrirlarning biri kelib, biri ketib yurgan davrlar boshlangan edi. Do'konlarda kartochka tizimi joriy qilinib, so'm-kupon degan maynavozchilik bilan aralash-quralash holda odamlarni tinkasini qurita boshladi. Oilamizda hali farzandlar tug'ilmagan, faqat er-xotin ikkalamiz yashasak-da, moddiy jihatdan qattiq qiynalardik. Bu paytlarga kelib Ikrom aka bilan ancha yaqin qadrdon bo'lib qolgan edim. Kunlarning birida, aniq esimda, shanba kuni edi, rasman dam olish kuni bo'lmagani uchun peshingacha ishlab, keyin ketish mumkin edi. Men bu paytda Axborot bo'limida ishlardim va xonamiz deyarli bir-biriga tutash edi. Ketish oldidan Ikrom akaning xonasiga mo'raladim. Qarasam, u kishi ham narsalarini yig'ishtirib, chiqib kelayotgan ekan. Shu zaylda ko'chaga chiqdik. «Bir piyoladan choy ichib, tarqaymizmi?!», deb bergan savolimga «Yo'q, hozir to'g'ri biznikiga boramiz. Yangangiz ajoyib baniq taom tayyorlayapti. Birgalikda tahm ko'ramiz», deb qoldilar. Men avval rad javobini berdim. Axir, noqulay-da. U kishi azbaroyi xafa bo'la boshlagandan keyin rozi bo'ldim. Buning ustiga «sizga aytadigan muhim maslahatim bor», deb qoldilar. Yunusobodda «dom»da turarkanlar. Taksida birpasda yetib keldik. Yanga kuydir-pishir bilan ovvora ekanlar, salomlashib, so'rashdik. Biz balkonga o'rnatilgan tapchanga joylashdik. Birpasda dasturxon noz-ne'matga to'ldi. Ikrom aka o'sha paytlarda juda taqchil va tanqis bo'lib qolgan «Beliy aist» musallasini ochdi. Biroz badanlar qizigach, so'z ochdi. - Xo'sh, otam, endi bu yog'iga nima qilmoqchisiz?! Men bu savoldan esankirab qoldim. Chunki «uyim-joyim, yaxshi ishim bor», deb boshqa narsani o'ylamagan ekanman. - Nimani, nima qilishim kerak, - deya savolga savol bilan javob qaytardim. - Bir umr jurnalistika olamida yashamoqchimisiz?! - deya yana savol berdilar. Xullas, suhbat ancha davom etdi. Xulosa shuki, taniqli jurnalist Ahmadjon Meliboyevning «Saydi Umirov zamondoshlari xotirasida» kitobiga yozgan «Jurnalistikada el qatori o'qigan, o'qishni bitirgan, qo'lga hujjat ham olgan, ammo hazrat Navoiy



Po'lat JOZILOV,  
«Xalq so'zi» gazetasi sobiq  
muhbiri, iste'fodagi polkovnik



«Al-Jome' as-Sahih»ning arab va indonez tillaridagi nusxasi keltirildi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida muhaddislar sultoni qalamiga mansub «Al-Jome' as-Sahih» asarining arab va indonez tillaridagi uch jildli nusxasi taqdimoti o'tkazildi. Marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchilari Xayriddin Sultonov, Muzaffer Komilov va boshqalar ko'plab sohalar kabi diniy-ma'rifiy jabhadagi islohotlar natijasida ro'y berayotgan yangilanishlar asnosida mamlakatimizda mazkur yo'nalishda yangi tarixiy davr boshlanayotganini e'tirof etdi. Ayniqsa, Imom Buxoriy majmuasining qaytadan qurilib, ulkan obodonlashtirish ishlari olib borilayotgani, majmua ichki qismining chuqur mazmun bilan boyitilishiga qaratilayotgan e'tibor musulmon dunyosida katta qiziqish uyg'otayotgani ta'kidlandi. Taqdimot qilinayotgan kitob ham dunyo xalqlarining asar va uning muallifiga bo'lgan yuksak ehtiromdan dalolat ekani qayd etildi. — Keyingi paytda O'zbekiston – Indoneziya munosabatlari barcha sohalarida, xususan madaniy-ma'rifiy sohada izchil rivojlanib bormoqda, — dedi M. Komilov. — Bugun buyuk muhaddis bobomiz nomi bilan ataladigan xalqaro markazga Islom olamida Qur'oni karimdan keyin ikkinchi muqaddas manba sifatida e'tirof etilgan «Sahihul Buxoriy» asarining indonez va arab tillaridagi noyob nusxasining taqdim etilishi ham ana shu do'stona aloqalar mahsulidir. Yana bir ahamiyatli tomoni mazkur asar bugungi kunda hadislarining noto'g'ri talqin etilishi va buyuk muhaddislar, xususan, Imom Buxoriyga nisbatan ilmsizlik va noxolislik bilan bildirilayotgan uyduurma fikrlarga qarshi ilmiy raddiya berish uchun ham mustahkam ilmiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Taqdimotda asarning arab va indonez tillaridagi uch jildli nusxasi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markaziga tantanali tarzda topshirildi. Indoneziyalik islomshunoslik fanlari doktori Ali Hamdiy tomonidan tayyorlangan kitob Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markaziga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining o'rinbosari, Osiyo va Tinch okeani bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi ijrochi kotibi Armida Alisjabana xonim tomonidan tortiq etildi. U o'tgan yilning sentyabr oyida markazga tashrif buyurib, uning faoliyati, erishgan ilmiy yutuqlari bilan tanishgan, shu asnda mamlakatimizda diniy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan islohotlar samarasini yuksak baholagan edi. Tadbir ishtirokchilari asar nusxasi markaz muzeyi va kutubxona fondidan munosib o'rin egallashi, tadqiqotchilar ilmiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

G. HASANOV, O'ZA



Xo'sh, nega biz bunday imkoniyatlardan foydalanib, ularga yangi bilimlar orqali demokratik qadriyatlarini singdirib, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va hokazo inson kamolotiga, alaloqibat, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan mavzularda bahs yuritib, avtoritar va totalitar jamiyatlar qon-qonimizga singdirgan qo'rquvni tomirimizdan chiqarib tashlamasligimiz kerak?

(Boshlanishi 1-betda)

# Ertaga kech bo'lishi mumkin!

## MEDIASAVODXONLIK ORQALI YOSHLARNI TARBIYALASH MUMKINMI?

Buning sababi joylarda rivojlangan demokratik davlatlarga xos iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ekologik va hokazo qadriyatlarining shakllanmaganligidir. Aks holda Prezident qoidagiy fikrini aytmagani bo'lardi: «Qonunlarni, odamlarni mensimaydigan, ularga qo'pol munosabatda bo'ladigan, byurokratiya va korrupsiya balosiga berilgan har qanday rahbar bilan — u vazir yoki hokim bo'ladimi, boshqa mas'ul vazifadagi amaldor bo'ladimi — salbiy harakatlari bilan davlat obro'siga putur yetkazayotgan bunday kishilar bilan uzil-kesil xayrlashamiz». Inchunin, demokratiya qonun ustuvor bo'lgan davlatdagina yashay oladi. Demokratik jamiyatda insonning erkin hayoti va faoliyatiga to'sqinlik qiladigan byurokratiya minimal darajaga tushadi. Jamiyatda muammo paydo bo'ldimi, insonda shikoyat qilish, boshqacha aytganda so'z erkinligi huquqi esga tushadi. Agar bu huquqlar biror amaldor tomonidan buzilsa, unda fuqaroda matbuot erkinligidan foydalanish ehtiyoji paydo bo'ladi. Ana shu tizimni o'rganib, tan olib, harakatga keltirsak, juda ko'p muammolar quyi bo'g'indayoq hal etiladi, har bir masala Prezidentning e'tiboriga qaratilavermaydi. Holbuki, ularning yechimi xalqparvar ijro va adolatli sud hokimiyatining izmidadir. Qanchalar qiyin bo'lmasin biz bu yo'ldan ortga chekinmasligimiz kerak. Aks holda adolatsizlik, avtokratik boshqaruv va uning oqibatlari hosilasi bo'lgan korrupsiya domida qolib ketamiz. Xalq qiyinladi, o'zga ellar esa ustimizdan kuladilar.

### AXBORIY XURUJLARNI QANDAY ANIQLAYMIZ?

Saylov arafasida O'zbekistondagi voqea-hodisalarga munosabat tariqasida turli axborotlar tarqatildi. Tan olaylik, biz kapitalistik jamiyat sari qadam tashladik. Bunda tadbirkorlar o'z aqliy qobiliyati, mehnati, harakati bilan boyishi ham tabiiy hol. Agar tadbirkorning ishlab chiqarishi ochiq va shaffof bo'lsa, jamiyatda unga qarshi «tish qayrash» emas, balki havasni targ'ib qilish, ya'ni to'g'ri va eng asosiysi, ishonarli axborot tarqatish talab etiladi (Prezident "o'chiqlik siyosatini izchil" davom ettirish zarurati haqidagi fikrida shu masalani ham nazarda tutganiga shubham yo'q). Demak, axboriy xurujlarga qarshi kurashning dastlabki qadami — jamiyatning ko'pchiligi uchun zarur va qiziqarli bo'lgan ma'lumotlarni o'z vaqtida OAV orqali e'lon qilishdir. Ikkinchi yo'li bu, axborot va uni tarqatish qoidalarini tushunadigan, to'g'ri qabul qiladigan auditoriyani yaratishdan iboratdir. Bunday auditoriya tarkibida esa jamiyatning barcha a'zolari bo'ladi. Ular uch — qonun chiqaruvchi, ijro, sud hokimiyati, to'rtinchi hokimiyat bo'lishga intilayotgan va demokratik qadriyatlardan bexabarlar monelik qilayotgan ommaviy axborot vositalari hamda shu hududda yashayotgan barcha fuqarolardan iboratdir. Qonun asosida yashaydigan jamiyatni, boshqacha aytganda, ongli fuqaroni qanchalik tez tarbiyalasak, har qanday axborot xuruj chalg'ita olmaydigan jamiyat quramiz. Chunki bunday jamiyat a'zosi har qanday yolg'on («feyk»)ni rostidan ajrata oladigan bo'ladi.

### QANDAY QILIB TARBIYALAYMIZ?

Birinchi navbatda bugungi holatimizni va bu darajaga tushib qolganimiz sabablarini o'rganishimiz va tegishli xulosalar chiqarishimiz nihoyatda muhimdir. Shubhasiz, aksariyatimiz rivojlangan davlatlarga havas qilamiz, ba'zilarimiz hatto ular yaratgan jamiyatda yashashga talpinamiz. O'zimizda shunday jamiyatni yarataylik, buning uchun har birimiz harakatda bo'laylik», deganda rahbarlardan ayb qidirishga tushib ketamiz. Lekin hech qachon o'zimizni ayblamaymiz. Eng yomoni, tahlillarimiz tushkun kayfiyat —

«surish kerak»ligi bilan yakunlanadi. Asosiysi, rivojlangan dunyo demokratiyasi bir harakat bilan vujudga kelmaganini, buning uchun birinchi navbatda, mashaqqat chekib o'qib-o'rganish kerakligini, keyin kurashning madaniy yo'llarini qidirish zarurligini o'ylashga toqat qilmaymiz. Yana bir haqiqat shuki, bugungi «kasalligimizni "tashkil qilgan" omillarni e'tiborga olib, unga qarshi davolash «muolaja»larini belgilay olmaymiz. Xususan, bugungi kunga kapitalistik davlatlar bosib o'tgan yo'ldan emas, boshqa yo'ldan yetib kelganimizni hisobga olmaymiz. Bilamiz, lekin bu omilni, masalan, fikriy (men uchun boshqalar o'ylasin) yalqovlikni tan olishga kuchimiz yetmaydi. Aslida, biz insoniyat tamadduni jarayonida nimalarni boy berdik? Birinchisi, mustamlakada yashadik va kommunizm degan xudosisizlik hukm surgan yolg'on g'oya ta'siridagi sotsialistik tuzumda tarbiyalandik. Faylasuflarimiz faxrlanib bong urgan «feodalizm (kapitalizm davrini yashamay) sotsializmga sakrab o'tdik». Holbuki, kommunizm g'oyasining «otasi» Karl Marks kommunizmga kapitalizmsiz o'tish mumkin degan fikrni aytgan! Bu borada uzoq bahslashish mumkin. Ammo, bizga keragi boshqa, ya'ni kapitalizm bozor qoidalari bilan faoliyat yuritadigan demokratiyani asos sifatida olganligidir. (Sotsializm ijtimoiy tenglik g'oyasini amalga oshirish uchun totalitarizm yo'lini tanladi). Biz bilishimiz zarur bo'lgan yana bir jihat, bu ikki qutbning matbuoti ham axborot tarqatishda o'z jamiyati talablaridan kelib chiqqanligidir. Ana shu omillar inobatga olinmagani sabab O'zbekistondagi barcha hokimiyat va boshqa auditoriya yangi demokratik jarayon, xususan, so'z erkinligidan qisman foydalangan bo'lsa-da, iqtisodiy o'zgarishlarga olib keladigan bilimlarni qo'llashga ojizlik qildi. Buning qator sabablari bor. Ularni aniqlamasdan turib esa yuqoridagi kichik sarlavhadagi — «Qanday qilib tarbiyalaymiz?» savoliga javob topa olmaymiz.

### AXBOROTGA MUNOSABATDA IKKI JAMIYAT TALABLARINI AJRATA OLAMIZMI?

Masalan, AQSH ommaviy axborot vositalari matbuotning avtoritar, libertarian va ijtimoiy mas'uliyat bosqichlarini bosib o'tdi. Har birining maqsad va vazifalari, qoidalari mavjud. Masalan, avtoritar nazariyada mavjud siyosiy mashina va amaldorlarni tanqid qilish ta'qiqlangan. Libertarian nazariyasida axborot berish, ko'ngil yozish, pul topish, lekin, asosan, haqiqatni topish va hukumatni nazorat qilishga yordamlashish bosh maqsad etib tanlangan. Ijtimoiy mas'uliyat nazariyasida esa OAV ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, aks holda, ularni kimdir shunday bo'lishga majburlashi lozim. G'arbda matbuot avtoritar nazariyada shakllanib, evolyutsion yo'l bilan libertarian, undan so'ng ijtimoiy mas'uliyat nazariyasi qoidalari asosida rivojlandi. Bu nazariyalarni hayotda qo'llash uchun AQSH va Yevropa davlatlari uch yuz yil davomida nafaqat siyosiy, ilmiy, balki muayyan iqtisodiy bosqichlarni ham bosib o'tdilar. Ma'lumki, agrar jamiyat (agrar iqtisodiyot) — ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichi bo'lib, unda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetakchilik qiladi. Industrial jamiyat — sanoatlashish, ishlab chiqarishning mashinalashishi, ilmiy-texnologik taraqqiyot natijalarining tatbiq etilishi natijasida shakllangan jamiyatdir. Postindustrial jamiyat — yuqori ishlab chiqarish iqtisodiyoti, bilimlar sanoati, yalpi ichki mahsulotning katta ulushi yuqori sifatli va innovatsion xizmatlarga to'g'ri keladi, shu bilan birga aholining katta qismi ishlab chiqarishdan ko'ra, xizmatlar sohasida ko'proq band bo'ladi. Anglashiladiki, XXI asrgacha agrar va industrial jamiyat dovonlarini bosib o'tgan postindustrial jamiyatdagi ilm-fan, iqtisodning rivojlanishi

uning matbuot nazariyasida ham katta o'zgarishlar yasadi. Ommaviy axborot vositalari ilmi doirasida aytganda esa avtoritar va libertarian nazariyadan ijtimoiy mas'uliyat nazariyasiga o'tgan jamiyatdagi axborot olish, tarqatish, foydalanish bilan bog'liq erkinliklar shu yo'lni tanlagan davlatlar iqtisodiga, farovonligiga xizmat qildi. Bizdachi? Vaqtli matbuotning ta'sis etilishi XIX asrning ikkinchi yarmi, milliy matbuotning boshlanishi esa XX asrning ilk yillariga, ya'ni agrar jamiyatdan industrial jamiyatga o'tishga harakat boshlagan chor Rossiyasining Turkistonda mustamlakachilik siyosatini yuritgan davrga to'g'ri keldi. O'sha paytda Rossiyada matbuotning avtoritar nazariyasi hukm surardi. Biz yuqorida avtoritar nazariyaning qoidasini esladik, ya'ni «matbuot davlat siyosatini yuritishga xizmat qilishi kerak. Siyosiy mashina va amaldorlarni tanqid qilish taqiqlanadi». Yaxshi bilamizki, jadidlar gazetalarining aksari aynan ana shu talabni bajarmagani uchun ham yopilgan edi. Demak, Turkistonda matbuot 1870-yildan 1917-yilgacha chor Rossiyasining bir qismi sifatida avtoritar nazariya tablari asosida faoliyat yuritdi. 1917-yil fevralda Rossiya imperatori

Turkiston (O'zbekiston) juda qisqa davr matbuotning libertarian nazariyasidan bahramand bo'lgan esa-da, XX asrning 20-yillaridan sovet kommunistik matbuot nazariyasiga chekindi. Alalxusus, O'zbekistonda matbuot G'arbda demokratiya davlatlari kabi keyingi bosqichga ko'tarilmadi, balki botqoqqa botirildi. Sovet totalitar nazariyasi qoidasi esa OAV davlatga qarashli, uning qattiq nazoratida bo'ladi va uning quroli sifatida boshqa nazariyalardan farq qiladi. Bu qoidaga asoslangan OAV esa odamlarning axborot olish huquqini poymol qildi, mustaqil fikrlashini chegaraladi, har bir fuqaro, jumladan, jurnalistlar shuuriga qo'rquv hissini joyladi. Rahbarlarni ham shu asosda «tarbiyaladi». Eng yomoni, bu kasallik uch-to'rt avlodni zaharladi. Uning asoratlari esa tezda yo'qolmasligini 32 yildan buyon ko'rib, bilib turibmiz.

### XULOSA O'RNIDA

Bugun mediasavodxonlik, mediata'lim va mediamadaniyat degan tushunchalar paydo bo'ldi. Kaminaga o'xshagan katta avlod vakillariga qanchalik yoqmasin yoshlar shu kabi so'zlar orqali yangi tushunchalarni qabul qila boshladilar.




Qo'lida internet tarmog'iga olib kiradigan moslamasi bo'lgan aksar murg'ak qalblar ijtimoiy tarmoqdagi bema'ni bahslarni, fikrsizlik oqibatidagi turli haqoratlaru, so'kinishlarni o'qib, eshitib, soch yulishu mushtlashishlar, hayosizliklarni ko'rib, ulg'ayyapti.

Nikolay Romanov taxtdan qulaganidan keyin mamlakatni ma'lum muddat Muvaqqat hukumat boshqardi. Bu davrda ta'sis etilgan matbuot nashrlari, jumladan, «Hurriyat», «Najot», «Ulug' Turkiston» singari gazetalarda chop etilgan materiallarda liberal yondashuvni, boshqacha aytganda libertarian nazariya elementlarini ko'rish mumkin. Mazkur nazariyaning bosh maqsadi axborot berish, ko'ngil yozish, pul topish bo'lsa-da, asosan haqiqatni topish va hukumatni nazorat qilishga yordamlashish edi. Ammo sovet Turkistoni jamiyatida libertarian nazariyaga xos siyosiy hamda iqtisodiy asosning yo'qligi libertarian nazariyaning o'rnashishiga mone'lik qildi. Qayd etish joizki, bolsheviklar olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat «Sovet kommunistik matbuot nazariyasiga» asos soldi. Darhaqiqat, 1917-yil 25 — 26-oktyabr (7 — 8-noyabr) kunlari bolsheviklar hokimiyatni qo'lga kiritgan bo'lsalar, Xalq Komissarlari Kengashi Raisi Vladimir Ulyanov-Lenin 27-oktyabr (9-noyabr), ya'ni harbiy to'ntarishdan bir kun o'tib, «Matbuot haqida»gi dekretni imzoladi va muxolifatdagi barcha nashrlarni yopish to'g'risida buyruq berdi. «Burjuaziyanning eng qudratli qurollaridan biri burjua matbuoti ekanligini har qanday kishi biladi. Ayniqsa, yangi hokimiyat, ishchi va dehqon hokimiyati endi mustahkamlanayotgan tig'iz bir daqiqalarda bomba va pulemyotlardan ham xavfli bo'lgan bu qurolni butunlay dushman qo'lida qoldirish mumkin emas», deyiladi o'sha dekretida. 1918-yilda Qo'qonda e'lon qilingan Turkiston muxtoriyatini qo'llab-quvvatlagan barcha nashrlar, jumladan, «Hurriyat», «Najot», «Ulug' Turkiston», «El bayrog'i» kabi gazetalar, «Al-Izoh», «Al-Isloh» singari jurnallar ham Xalq Komissarlari Kengashi tomonidan yopilganini bir esga olaylik.

Xo'sh, nega biz bunday imkoniyatlardan foydalanib, ularga yangi bilimlar orqali demokratik qadriyatlarini singdirib, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va hokazo inson kamolotiga, alaloqibat, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan mavzularda bahs yuritib, avtoritar va totalitar jamiyatlar qon-qonimizga singdirgan qo'rquvni tomirimizdan chiqarib tashlamasligimiz kerak? Hozircha esa qo'lida internet tarmog'iga olib kiradigan moslamasi bo'lgan aksar murg'ak qalblar ijtimoiy tarmoqdagi bema'ni bahslarni, fikrsizlik oqibatidagi turli haqoratlaru, so'kinishlarni o'qib, eshitib, soch yulishu mushtlashishlar, hayosizliklarni ko'rib, ulg'ayyapti. Shunday ekan jamiyatning har bir qatlamiga so'z va matbuot erkinligi borasidagi demokratik tamoyillarni, mas'uliyatni tushuntirish, ayniqsa, o'sib kelayotgan yoshlarga ta'lim muassasalaridanoq mediata'limni o'rgatib, uning tarkibida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda o'z axboroti, fikr-mulohazalari bilan ishtirok etish madaniyati, odobi kabi xislatlarni shakllantirish bo'yicha alohida bilimlar majmuasini yaratish ayni paytdagi eng dolzarb vazifamizdir. Zero, shu yo'l bilan hali ham bugungi holatni ijobiy tomonga o'zgartirish imkonimiz bor.



Halim SAIDOV, filologiya fanlari doktori

Chorshanba  
26-iyul, 2023-yil  
№23 (1211)

**Qo'qon shahar hokimligining ha'zida asossiz, ha'zida noqonuniy qabul qilgan qarorlari vaqti kelib birin-ketin bekor qilinmoqda.**

## SHAHAR HOKIMLIGI SUD QARORINI

# QO'QON NEGA IJRO ETMAYAPTI?

Masalan, 27-maktabning yer maydoni va bino inshootlari shahar hokimi qarori bilan MCHJ shaklidagi tadbirkorlik subyektiga berib yuborilgan edi. Viloyat hokimi o'z qarori bilan hotamtoy hokim qarorini bekor qildi va barchasini o'z egasi – maktabga qaytardi. Bu daryodan tomchi desak ham bo'laveradi. Fuqarolarning yer va mol-mulkini buzdirib, sud orqali chiqarilgan va qonuniy kuchga kirgan qarorlarga ko'ra, haligacha to'lanmay kelinayotgan shahar hokimligi qarzdorligi 17 milliard so'mdan oshibdi.

– Hozirgi kunda Qo'qon shahrida kompensatsiya o'zlovleri 17 milliard so'm atrofida to'planib qolganligi sababli viloyat hokimligiga murojaat qilingan, – deydi Qo'qon shahar hokimligi huquqshunosi Ma'rufjon Qayumov. Marhabo Rahimova shunday haqoratlardan biri. – Umr bo'yi to'quvchi bo'lib ishladam. Turmush o'rtog'im oshpaz edilar. Biz topgan-tutganimizni to'plab shu yerga avtomobillarga xizmat ko'rsatish shaxobchasi qurgan edik, – deydi ko'ziga yosh olib Marhabo opa. – Lekin... Haqsizlik iztirobida kasallik orttirib, 2-guruh nogironiga

aylangan Marhabo Rahimova ortiq gapira olmasdi. – Onam hayajonlanib ketyaptilar, – deydi opaning farzandi Ikromjon Rahimov. – Qo'qon shahri hokimi qarori bilan buzilgan inshootlar uchun haligacha kompensatsiya oloqanimiz yo'q. Rahimovlar mulki hozir ko'p qavatli uylar qurilayotgan maydonda joylashgan edi. Uni shahar ko'chalarini obodonlashtirish maqsadida buzdiril. Uzoq sarsongarchilikdan so'ng shahar hokimining, 2013-yil 536-sonli qarori bilan Rahimovlarga Qo'qon – Farg'ona yo'lida issixona qurish sharti bilan yer maydoni ajratildi. Rahimovlar darhol tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, qurilish boshlayotgan chog'da... yerning egasi borligi aniqlandi. Yer «Universalbank» XATBga tegishli ekan. Qo'qon shahar hokimining qarori sud qarori bilan «haqiqiy emas» deb topildi va bekor qilindi. Rahimovlar yana hech nimasiz qolishdi. – Shundan buyon na yer, na kompensatsiya berishadi. Otam bu voqealarni yuragiga yaqin olib vafot etdilar... – deydi Ikromjon Rahimov. Nihoyat Rahimovlar oilasi sudga murojaat qildi. Uzoq

davom etgan o'rganishlardan so'ng, 2023-yilning 19-aprelida Qo'qon tumanlararo fuqarolik sudi Qo'qon shahar hokimligidan 3 814 562 000 ming so'm undirish haqida qaror qabul qildi va u tegishli muddat o'tib qonuniy kuchga kirdi. – Fuqarolik ishlari bo'yicha Qo'qon tumanlararo sudining 2023-yil 20-apreldagi ijro hujjati kelib tushdi. Bunda da'vogar Rahimova Marhabo foydasiga qarzdor Qo'qon shahar hokimiyatidan 3 814 562 000 ming so'm kompensatsiya undirish belgilangan va mazkur hujjatga ko'ra ijro hujjatlari qo'zg'atilgan. Shahar g'aznachilik bo'limiga talabnoma yuborildi, mol-mulkiga ta'qiq qo'yildi, hisobraqami band qilindi, – deydi Qo'qon shahar majburiy ijro byurosi rahbari o'rinbosari Lazixxon Alixo'jayev. – Lekin pul mablag'lari to'lanmayapti. U kelib tushsa, haqdorning hisobiga o'tkazib beramiz. Ha, qonunan adolat qaror topdi. Yer, mol-mulki buzilgan fuqaroga kompensatsiya undirilishi lozim. Ammo... – Qo'qon shahar hokimligi hisobraqamida yetarli mablag'lar bo'lmaganligi, shu kabi kompensatsiya

qarzdorliklari 17 milliard so'mgacha to'planib qolganligi sababli shahar hokimi Ma'rufjon Usmonov tomonidan Farg'ona viloyat hokimligi qoshidagi maxsus jamg'armaga murojaat qilindi, – deydi Ma'rufjon Qayumov. – Viloyat hokimligi mutaxassislari Qo'qonga kelib vaziyatni o'rganishdi va natijalarini Respublika iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etdilar. Agarda vazirlik qoshidagi maxsus jamg'arma Farg'ona viloyatidagi hududiy jamg'armaga, u esa Qo'qon shahar hokimligiga shu pullarni o'tkazib bersa, biz nafaqat Rahimova, balki boshqa haqdorlarga ham kompensatsiya pullarini to'lab berishga harakat qilamiz. Shunday qilib hokimiyat jabrlanuvchiga «jamg'armalar pul ajratsa beramizda, demoqda. Jabrlanuvchilarning O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga qilgan murojaati ham natija bermadi. Javob xatida shunday deyiladi: Respublika jamg'armasi kuzatuv kengashi o'z ishchi organi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi va Respublika jamg'armasidan jismoniy va yuridik shaxslarga

yetkazilgan zararlarini qoplash uchun hududiy jamg'armalarga mablag' ajratish yoki ajratishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi belgilab qo'yilgan». Voajab, sudning qonuniy kuchga kirgan qarorini vazirlik muhokama qiladimi, yetkazilgan zararini qoplashni o'z tarkibidagi hududiy jamg'armaga «rad etishi» ham mumkinmi? Haqli savol tug'iladi. «Jamg'arma»da sud qarori ijrosini «rad etish» huquqi bor ekan, nega Majburiy ijro byurosi Qo'qon shahar hokimligidagi xatlovga olingan o'nlab avtomashina, mol-mulkni sotuvga qo'yamayapti? Xullas, Rahimovlar yetkazilgan zararini undirib olguncha hali Qo'qon shahar hokimiyati, majburiy ijro byurosi, g'aznachilik o'rtasida k-o'-o'-o'-p sarson beriladigan ko'rinadi.



Muhammadjon OBIDOV  
O'ZA

## ✓ Nuqtayi-nazar

### CHIN MUHTOJ BILAN

# BOQIMANDANI ADASHTIRMAYLIK

Kam ta'minlangan oilalarning farzandlari parvarishi uchun to'lanadigan nafaqa qamrovi ham kengaydi. Nafaqa tayinlashda inobatga olinadigan bolalar yoshi esa 14 dan 18 yosh etib belgilandi. Eng asosiysi, nafaqa miqdori o'rtacha 1,5 barobarga, ishsizlik nafaqalarining eng kam miqdori esa 3,2 barobarga oshirildi. Yana bir fakt: tizimda aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan 20 dan ortiq yangi instrument joriy qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish marosimidagi nutqida ham bu boradagi ishlar ko'lamini oshirish, kambag'allikni qisqartirishga erishish bo'yicha tizimli ishlar olib borishi alohida ta'kidlandi, bu ushbu tizim yanada takomillashtirilishidan dalolatdir. Ammo shunga qaramay hali-hanuz oramizda «Odamlarni rozi qilish», «Inson qadrini ulug'lash» tamoyillarini noto'g'ri tushunayotganlar ham uchramoqda. Ya'ni mahallani shaxsiy ta'minotchisiga aylantirib olganlar ham bor. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning 1-yanvar holatiga O'zbekistonda 9 729 961 ta oila bo'lib, shundan 4,3 million kishi pensiya va nafaqa olgan. Pensiya jamg'armasi vakillarining ma'lum qilishlaricha, 2023-yilning yanvar oyi uchun esa 4,4 million kishiga pensiya va nafaqa berilgan. Kambag'allar soni 5 million nafar deyilayotgan bir paytda bu kabi harakatlar yanada jadallashirilyapti.



Iqtisodiyot bo'yicha falsafa doktori Nurbek Yo'ldoshevning ta'kidlashicha, aholi kambag'allashuviga asosan, qishloq joylarda aholining yetarli bilim va malakaga ega emasligi, mehnat bozorida raqobatga dosh berolmaslik, ta'lim tizimidagi salbiy natijalar va ko'pchilikda boqimandalik kayfiyatining yuqoriligi sabab bo'lmoqda. Mahalla raislari bilan suhbatlashsangiz, ularning ko'pchiligi albatta, ehtiyojmand aholiga yordam berish kerakligi, va bu boradagi islohotlarni qo'llab-quvvatlashini aytadi. Ammo ular keyingi paytlarda «yuzimning qattig'i – jonimning huzuri» deyidiganlar ko'payib ketganini, 20-40 sotix yeri bor, uyi yonidan bir ariq suv oqib tursayam, ayronga solinadigan rayhonni mahalla idorasidan yulib ketadiganlar borligini aytib xunob bo'lishyapti. Gavdasidan ot hurkadigan erkaklarning shikoyatidan-ku, qon bosimimiz oshadi: «nega meni kam ta'minlanganlar ro'yxatiga kiritmayapsiz, davlat bizgayam bersa g'aznasi tugab qolmas endi...» Ulamolarning ta'kidlashlaricha, islom dini mehnatga layoqatli har bir inson uchun osonlik bilan halol rizq topish yo'lini ko'rsatib bergan. Lekin inson hayoti doimo birdek kechavermaydi,

turli holatlar, kutilmagan hodisalar oqibatida ba'zi kishilar og'ir iqtisodiy holatga tushib qoladilar. Bunday holatlar sadaqa, xayr-ehson yo'li bilan muolaja qilinadi. Masalan, mol-dunyosi ko'payib, ma'lum miqdorga yetgan va belgilangan muddat davomida ehtiyojdan ortiqcha bo'lib turgan boy kishilar zotot beradilar. Iqtisodiy imkoniyati bu darajaga yetmagan kishilar ham savobdan bahramand bo'lishi uchun ixtiyoriy sadaqa qilishga targ'ib qilinadilar. Ayni paytda, muhtoj kishilar ham odob doirasidan chiqmaslik, xiralik bilan odamlardan tilanchilik qilmay, qanoatli bo'lishga chaqiriladi. Bu borada davlat ham o'z zimmasidagi mas'uliyatni bajarayotganiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Lekin, odamlardagi boqimandalik kayfiyati afsuski, «virus» singari keng tarqalyapti. Eng yomoni, kelajak bunyodkori bo'lgan yoshlarning ham bu «virus»ga chalinayotgani juda xavotirlidir. Nazarimda, ayni shu mavzuda ijtimoiy loyiha tashkil etilib, ulamolalar, domlayu, psixologlar aholi, ayniqsa yoshlar bilan uchrashib davra suhbatlari tashkil etishsa, foydadan holi bo'lmasdi...

Gulira'no YUNUSOVA

## ✓ Mulohaza

Inson tanasining elektromagnit nurlanishlarga eng ta'sirchan qismi bu bosh bo'lib, bilamizki, elektromagnit to'lqinlari aynan bosh qismi orqali unga ta'sir qiladi.



## TEGMA KUYASAN, ANA-A KUYDING...

Mutaxassislarning fikricha, so'zlashuv jirayonida insonning qon bosimi ko'tariladi. Bosh miya to'qimalarining zararlanishi, ayrim tadqiqotchilar fikriga ko'ra, birdaniga emas, balki oradan 15-20 yil o'tgachgina namoyon bo'la boshlaydi. Shu sababli ham yaqin kelajakda aholi o'rtasida bosh miya o'smasi bilan xastalanganlar sonining keskin oshishi kutilmoqda. Negaki, har kuni atigi 15 daqiqa mobil telefonda gaplashishning o'zi miyada saraton o'smasi hosil bo'lishi uchun yetarli ekan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ham shu paytgacha mobil telefonlarning zarari haqida rasmiy xulosadan tiyilib kelar edi. Biroq 13 ta mamlakat ishtirokida o'tkazilgan tadqiqot natijalari e'lon qilinganidan so'ng mobil telefonning zararini tan olishga majbur bo'ldi. Hobbuki, bundan 23 yil oldin JSSST uyali telefonlar zarariga oid

Yevropa parlamentiga taqdim etgan hisobotida insonlarning saraton kasalligiga chalinishida uyali telefonlarning ta'siri kuchli ekani, shuningdek, telefon nafaqat eshitish, balki ko'rish faoliyatini ta'minlaydigan asab to'qimalariga ham ta'sir ko'rsatishini, 30 yoshgacha bo'lganlar bu xatarga ko'proq yo'liqlishini isbotlab bergan edi. Nurlanishga, ayniqsa, bolalar ta'sirchandır. Bolaning bosh miyasi elektromagnit nurlarini kattalarga qaraganda ko'proq yutadi. Ya'ni, ularning aqliy rivojlanishi uchun mas'ul hisoblangan bosh miya bo'lmachalari elektromagnit to'lqinlar ta'siridan jiddiy zarar ko'radi. Shu bois, mobil telefonidan foydalanuvchi bolalar insoniyat tarixida birinchi marta radioto'lqinli diapazonidagi elektromagnit maydonning zararli ta'siridagi «xatarli guruh»ga kiritildi. To'g'ri, aslida telefon

uzoqni yaqin, og'irni yengil qilish uchun chiqarilgan vositadir. Lekin bugun tan olaylik, u hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylandi. U ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizni ham o'zgartiryapti. Telefon tufayli hatto onalarimiz alla aytmay qo'ydi. Ovqat qilish, uy yumushlarini bajarish kabi vazifalarni texnika bajarayotgani uchun esa asosiy umrimizni telefonda o'tkazayapmiz. Qush inida ko'rganini qiladi, deyishadi. Qo'lida kitob ushlagan onani ko'rmagan farzand albatta kitobga intilmaydi. Shu o'rinda Hojiboy Tojiboyevning ip yigirib o'tirgan ayol bolasiga «tegma kuyasan, ana-a kuyding...» degan gaplari bugun qo'lida telefon bilan farzandiga bepisandlarcha munosabatda bo'layotgan onalarni eslatib turibdi...

Muxtisa ERGASHEVA,  
partiya Markazi  
kengashi bo'lim  
boshlig'i



Yevropa Ittifoqi Lotin Amerikasida «demokratiyani rivojlantirish» uchun 2 million yevro ajratishini ma'lum qildi. Ushbu mablag' Panama, Kosta-Rika, Dominikan Respublikasi va Ekvador davlatlariga yo'naltiriladi. Dastur uch yilga mo'ljallangan.



## «2024-YILNING YOZIDA UKRAINA G'ALABA QOZONADI!»

Ukraina Mudofaa vaziri Olexsiy Reznikov CNN telekanaliga bergan intervyusida kelasi yilning yozida Rossiya – Ukraina urushi Kiyevning g'alabasi bilan yakunlanishini va u NATOga qo'shilish taklifini olishi mumkinligini aytdi. U ukrainalik uchuvchilar F – 16 samolyotlaridan kelasi yil bahorga qadar foydalanishni boshlashlari mumkinligini ham aytdi o'tdi. Shuningdek, u 2024-yilda blok tashkil etilganiga 75 yil to'lishini eslatib, "Kim biladi, ehtimol bu Ukraina uchun juda muhim kunga aylanadi. Bu mening taxminim", deya qo'shimcha qildi. 2024 yilgi sammitgacha urush tugaydi deb o'ylaysizmi, degan savolga mudofaa vaziri tezda shunday javob berdi: "Ha. Biz bu urushda g'alaba qozonamiz".



## ISPANIYADAGI SAYLOVDA NIMA GAP?

BBCning xabar berishicha, Ispaniyada bo'lib o'tgan parlament saylovi natijalariga ko'ra, o'ng markazchi Xalq partiyasi (XP) birinchi o'rinni egallab turibdi. U parlamentdagi 350 ta o'rindan 136-o'ringa ega bo'ldi. Biroq XP natijalari so'rovlar bashorat qilgandek yaxshi bo'lmadi – u o'ta o'ngchi Vox partiyasi bilan birlashsa ham (u 33 o'ringa ega) hukmron koalitsiyani mustaqil tuza olmaydi. Hozir mamlakatni koalitsiyaning qiyin muzokaralari kutmoqda, uning natijasini esa oldindan aytish mumkin emas. Bu yilgi navbatdan tashqari umumiy saylovda konservatorlar uchun asosiy raqobat hukmron Ispaniya Sotsialistik ishchilar partiyasi (ISIP) bo'lib, 122-o'rinni qo'lga kiritdi. To'rtinchi o'rinda, kutilganidek, 31-o'ringa ega bo'lgan Sumar so'lihi partiyalar alyansi. Ilgari Xalq partiyasi Vox bilan koalitsiya tuzishi mumkinligi taxmin qilingan edi. Bunday holda, Ispaniyada diktator Fransisko Franko vafot etgan 1975-yildan beri birinchi marta o'ta o'ng qanot vakillari hokimiyat tepasiga kelishi mumkin edi. Ispaniyada joriy yilning may oyida hukumatning mahalliy organlariga saylovlarda hukmron partiya nihoyatda yomon natijalar ko'rsatgach, navbatdan tashqari parlament saylovi e'lon qilingan edi.



## TURKIYA IMMIGRATSIYA SIYOSATINI O'ZGARTIRADI

«Hurriyet» gazetasining xabar berishicha, Turkiya Yevropa Ittifoqiga qo'shilish uchun immigratsiya siyosatini o'zgartiradi. Turkiyaning eng muhim masalalaridan biri bo'lgan immigratsiya siyosatida yangi qadam tashlash rejalashtirilmoqda. Bu borada boshpana izlovchilarga, ayniqsa, suriyaliklarga Turkiya fuqaroligini berishni murakkablashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib boriladi, deyilgan nashrda.

## BIR KUNDA 20,3 MLRD. DOLLAR YO'QOTISH

«The Economic Times» nashri xabariga ko'ra, Tesla kompaniyasi asoschisi Ilon Mask bir kunda 20,3 milliard dollar yo'qotdi. Bunga Tesla aksiyalari narxlarining tushib ketgani sabab bo'lgan. Aksiyalar kompaniya elektr transport vositalarining narxlarini pasaytirishda davom etishi mumkinligi haqida ogohlantirgandan so'ng pasayib ketgan.



## MBAPPE REKORD O'RNATMOQCHI!

Saudiya Arabistoni hukumati mamlakat futbol klublariga 2030-yilgacha transferlar uchun 20 milliard yevro ajratdi. Kecha Saudiya Arabistonining "Al-Hilol" klubi jahon futbolining asosiy yulduzlaridan biri – Kilian Mbappe uchun PSJga 300 million yevro taklif qilgani xabar qilingandi. Futbolchining o'ziga yiliga 700 million yevro maosh va'da qilingani aytilgan. Mazkur ikki holat ham jahon futboli uchun rekorddir.

## DUNYOGA BOLTIQ DENGIZI ORQALI

«Frans Press» uch nafar vazirning Yevropa Ittifoqi komissariga yo'llagan maktubiga tayanib, Litva Yevropa Ittifoqini Ukraina bug'doyini eksport qilish uchun Boltiq dengizi portlaridan foydalanishga chaqirdi, deb xabar tarqatdi. «Boltiq dengizi portlari Ukrainadan mahsulot, jumladan, don tashishda ishonchli yo'lak bo'la oladi», – deyiladi nomada. Ma'lumotga ko'ra, mazkur. «Yo'nalish yordamida yiliga 25 million tonna bug'doy tashish imkoniyati mavjud. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi Ukraina – Polsha chegarasida byurokratik rasmiyatchilikni qisqartirishga chaqirilgan. Yaqinda Rossiya Federatsiyasi don shartnomasi cho'zimasligi haqida Turkiya, Ukraina va BMTni xabardor qilgandi. Natijada mazkur kelishuv 18-iyul kuni to'xtatildi.

## QIRG'IZISTON – TOJIKISTON CHEGARASIDA YANA NIZO

Qirg'iziston Respublikasi Milliy xavfsizlik davlat qo'mitasi (GKNB) chegaraxizmatining xabar berishicha, Qirg'iziston – Tojikiston chegaradosh hududlari aholisi o'rtasida ziddiyat kelib chiqqan. Voqea joyiga Qirg'iziston Ichki ishlar vazirligi hududiy bo'linmasi xodimi yetib kelgan va hududga kiraverishda unga Tojikiston fuqarolari, Xo'jai A'lo qishlog'i aholisi hujum qilgan. Ta'kidlanishicha, keskinlik kuchayib ketmasligi uchun mas'ullar o'rtasida muzokara olib borilyapti.



## 11 YOSHLI BOLA EYNSHTEYNNI ORTDA QOLDIRD

Buyuk Britaniyada 11 yoshli Adrian Li aqliy qobiliyat darajasi (IQ)ni belgilab beruvchi testda Hoking va Eynshteynni ortda qoldirdi. Mensa IQ testida mashhur daholar 160 ball olgan bo'lsa, Adrian Li 162 ballni qo'lga kiritgan.

Mana, uch yildirki, Mirjalol Qosimovning «Alaniya»dagi o'yinlarini bolalarcha havas bilan kuzatgan, ayni paytda esa o'zi o'zbek futbolini dunyoga tanitishni maqsad qilgan Eldor Shomurodov Italiyada. U kecha o'nlab mutaxassislarining o'zi haqidagi bashoratlarni yo'qqa chiqarib, bugunga qadar to'p surib kelgan «Roma»dan «Kalyari»ga o'tish orqali bolalikdagi orzusi: o'zbek futbolini jahonga tanitish borasida navbatdagi qadamini qo'ydi. Garchi Eldorga Italiyada o'yin amaliyoti kam berilayotgan bo'lsa-da, u minglab yosh o'zbek futbolchilariga o'rnak bo'lib, ularga motivatsiya berishda davom etyapti. To'g'ri, ko'pchilik Eldorning bu qarori zamirida moddiy manfaatdorlik bor degan fikrda. Ammo tan olaylik, Eldor uchun moddiy manfaatdorlik ustun bo'lganida edi, u allaqachon Turkiya, Arab davlatlari yoki Rossiya futbol jamoalari takliflaridan birini qabul qilgan bo'lardi.

Ta'kidlash joizki, hujumchimiz bir necha mavsumdan beri boshqa ligalardan tushayotgan takliflarni rad etib kelmoqda. Ya'ni Shomurodov uchun A Seriyada qolish hamon muhim ahamiyat kasb etadi. Bugunga qadar Eldorga Gretsiyaning PAOK, Turkiyaning «Galatasaray», Rossianing «Spartak», Ispaniyaning «Jirona» klublaridan takliflar bo'ldi. Biroq, hamyurtimiz A Seriyada qolishni ma'qul ko'rdi.


Bundan tashqari, Eldor Shomurodov O'zbekiston milliy terma jamoasi tarixida eng yaxshi to'purar nomini ham o'ziga kiritganini aytdi joiz. Ochig'i, o'zbek futbolchisining yevropa «yashil maydon»larida turli qiyinchiliklar, til muammosi, yaqinlar sog'inchi va, shubhasiz, o'zaro raqobatlariga dosh berib to'p surishi juda katta kuch va matonat talab etadi, albatta. – Men yangi sarguzashtlarga tayyorman. «Kalyari»ga kelganimdan juda xursandman, – deya ta'kidladi, Eldor kecha OAVlarga bergan intervyusida.

Insayder Janluka Di Marsio xabariga ko'ra, 29 yoshli hujumchi 24-iyul kuni «Kalyari» klubida tibbiy ko'rikdan o'tdi. Rim klubi va Sardiniya oroli jamoasi o'rtasida ham Shomurodov bo'yicha kelishuv muvaffaqiyatli yakun topdi. Qayd etilishicha, «Roma»ga Shomurodovning bir yillik ijarasi uchun 1 million yevro to'lanadi va 2024-yilning yozida «Kalyari» Eldorni 9 million yevroga sotib olish huquqiga ega bo'ladi. Tomonlar ana shu talablari asosida «1+3» shaklida shartnoma ham imzolashdi. O'zbekistonlik forvardning ijara muddati davomidagi maoshining 50 foizini «Kalyari» to'ladi, qolgan yarmini Rim klubi to'laydi. Avvalroq, Shomurodovning «Roma»dagi yillik maoshi 2 million yevroni tashkil etishi haqida xabarlar tarqalgan edi. Ma'lumki, futbolchi 2021-yili «Jenoa»dan 17 million yevro evaziga Rim klubiga transfer qilingan. Eslatib o'tamiz, italiyalik 71 yoshli taniqli mutaxassis Klavdio Raneri yanvar oyida «Kalyari» bosh

murabbiyiga aylangach, B Seriyada 14-o'rinda borayotgan klubni yarim yil ichida peshqadamlar safiga ko'tarib, mavsum yakunida pley-off orqali A Seriyaga olib chiqishga muvaffaq bo'ldi. Eldor Shomurodovning aytilishicha, uning «yagona maqsadi o'zbek futbolini dunyoga olib chiqish»dir. Eng muhimi esa Eldor Shomurodovning yevropa futboli tomon o'chgan «tuynug'i» yosh futbolchilarimiz uchun «eshik»ka aylana boshladi. Endilikda O'zbekiston yoshlar va milliy jamoasi a'zosi Abduqodir Husanov ham rasman Fransiyaning «Lans» klubida to'p suradigan bo'ldi. Ya'ni O'FA va «Energetik-BGU» klubi O'zbekiston milliy jamoasi va Belarus klubi himoyachisining «Lans» klubi a'zosi aylanganini rasman tasdiqladi. Championat.asia sayti ma'lumotiga



ko'ra, Abduqodir Husanov tibbiy ko'rikdan o'tgach, «Lans» klubi bilan 4 yillik shartnoma imzolagan. U endi fransuz klubida 25-raqam ostida o'ynaydi. Shuni alohida qayd etish joizki, lansliklar yakunlangan mavsumda Fransiya chempionatida «PSJ»dan (85) bir ochko kam (84) jamg'arib, 2-o'rinni egallagan holda yangi mavsumdan Yevropa Chempionlar ligasida ishtirok etadi. Bundan avvalroq, O'zbekiston yoshlar jamoasi (U20) safida Osiyo chempioni bo'lgan va Argentinada yoshlar o'rtasidagi JCH – 2023da ishtirok etgan Abduqodir Husanovning o'yinlari yevropalik skautlar tomonidan kuzatilgani haqida xabarlar tarqalgan edi. Ma'lumot o'rinda aytilish joiz: Husanov joriy mavsum Minsk klubi safida 8 ta o'yinda bitta golga mualliflik qilgan. Shuningdek, u O'zbekiston milliy jamoasi safida CAFA Nations Cup – 2023 bahslaridagi debyutini o'tkazgan. Eslatib o'tamiz, hozirgacha Yevropa kuchli beshlik chempionatlaridagi o'zbekistonlik yagona futbolchi – Eldor Shomurodov edi. Husanov bu borada ikkinchi o'yinchiga aylandi. Xulosa qilib aytganda, Eldorning izidan yangi futbol yulduzlari jahonga chiqmoqda. Bu esa o'z navbatida o'zbek futboli jahon chempionatlariga yaqinlashayotganiga ham ishoradir.



## Ona tilim

Garchi zug'um qilganlarni yoqirmadim,  
She'r yozdimu bo'lak ishni qotirmadim.  
Tilim turib o'z tilimda gapirmadim,  
Bir eslasam eziladi bag'ri-dilim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Onam «erkam» deb quchganda tunlar yarim,  
Erkim yo'q deb zirqirardi bir joylarim,  
Parovozni hansiratgan bug'doylarim,  
Oltinlarim, ma'danlarim, ipaklarim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimlar uchun biz edik bir badaviylar,  
O'zbekni qon qaqshatganni o'zbek siylar,  
Holimizni qon kuzatdi Yassaviylar,  
Topganimiz handalakdek tilim-tilim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimdir mayda millat bo'ldi, kimdir katta,  
Katta millat — Afandisi yo'qdir hatto,  
Biz piyoda, biz boqqanlar yurdi otda,  
Zulm o'tsa faqat sendan o'tdi zulm,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Sen bo'lmasang nima bizga silliqlik she'rlar,  
Bu dunyoda tili yo'qda dil yo'q derlar,  
Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar,  
Yuragimning to'ridagi so'lmas gulim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Bir qarasam har shevangda ming jilolar  
Har novdangda, har mevanga ming jilolar.  
Qodiriylar, Cho'lponlar-u, Abdullolar,  
Sening qaytgan kuning men tug'ilgan yilim,  
Ona tilim, ey muqaddas Ona tilim.

### ONAMGA XAT

Men sizni o'ylayman shomu saharda,  
Ona, sog'insam ham bora olmayman,  
Tunlari charog'on shunday saharda  
Hech kimga ko'nglimni yora olmayman.

Men siz aytgandayin hammani sevdim,  
Hammaga ishonдим, mana oqibat:  
O'z do'stim uyiga ko'mildi sevgim,  
Kun bo'lib ko'ksimni kuydirdi nafrat.

Boshimdan o'tgani ko'kka ham ayon,  
Yulduzlar qiqirib kular oqbadan:  
Men — zangor yaylovda olis, bepoyon,  
Uyuridan ajrab qolgan qulunman...

Mana, men ketyapman tosh yo'lda ko'zim,  
Qadamim moshinlar yo'rg'asiga mos.  
Yig'lasam yupatib o'zimni o'zim,  
Pishqirib qo'yaman toychoqlarga xos.

Va sizni o'ylayman shomu saharda,  
Ona, sog'insam ham bora olmasman.  
Tunlari charog'on shunday saharda  
Hech kimga ko'nglimni yora olmasman...

Ha, sevgi haqida. U dilga ne zeb,  
Kuyinmang, ne iloj qilmasa nasib,  
Baxtinga hamisha Siz sog' bo'ling deb,  
Sog'ingan o'g'lingiz — Muhammad Yusuf.

### QUSHLAR HAM YIG'LAR

Terlar oqdi suv bo'lib bizdan  
Va gursillab yiqildi terak...  
Aka, bizning qilmishimizdan  
Tunda qushlar yig'lasa kerak.

Ona chumchuq aylanib ketmas,  
Ko'ngliga qil sig'masa kerak.  
Eski indan tashib borib xas,  
Yangi inda yig'lasa kerak.

Baland bo'lar uyimiz tog'dek,  
Ayyonida ustun ul terak.  
Biz yasharmiz, ko'nglimiz chog'dek,  
Shunda qushlar yig'lasa kerak...

### XAVOTIR

Qo'rqaman, ertaga men o'lib ketsam,  
Yotar bo'lsam qumga botib ko'zlarim,  
Ko'nglimni ko'chkiy bosadi bir g'am —  
Yig'lashni ham bilmas mening qizlarim...

Eng yaqin do'stlarim g'iybatim qilar,  
Eng zaif dushmanim ustimdan kular.  
Ular-ku, ne qilsa o'zlari bilar,  
Yig'lashni ham bilmas mening qizlarim...

Shoir o'lsa kim ham kuyinar deysiz,  
Madhiyaboz hozir suvarakday ko'p.  
Ular misli qishda tarnovdagi muz,  
Barmoq tegsa yerga to'p-to'p...

Tildan qolsam ko'zda qotib yoshlarim,  
Ko'nglimdan boshqa bor axir, ne zarim?  
Yerlarga egilgan kuni boshlarim,  
Yig'lashni ham bilmas mening qizlarim...

Ular yosh. O'limdan qo'rqaman yomon,  
Chunki, dardiga hech quloq solmadim.  
Qabrimning ustida yig'lasin debon,  
Qizlarim ko'zyoshin asray olmadim!

## SAVOLBERING!

**?** «Temir daftar»da ro'yxatda turaman. Oliy ta'lim muassasasining 2-kursini tamomlagan farzandimni «Yoshlar daftariga» kiritilishini so'rab hokim yordamchisiga murojaat qilgandim. Bir oildan ikki kishi bu kabi daftarlarda turishi mumkin emasligini aytdi. Hokim yordamchisining shu gaplari to'g'rimi?  
**Ma'suma Boltayeva, Xonobod tumani**

— Yo'q, to'g'ri emas. Vazirlar Mahkamasining 2022-yildagi 312-son qaroriga ikkinchi ilova qilib keltirilgan nizomning 2-bobida «Yoshlar daftariga» kiritilishi mumkin bo'lganlar ro'yxati sanab o'tilgan bo'lib, ushbu ro'yxatning birinchi oila a'zosi «Temir daftar», «Ayollar daftar» yoki «Ijtimoiy himoya yagona reyestri»ga kiritilgan oildagi yoshlar ham ushbu daftariga kiritilishi mumkinligi belgilangan.  
Ulug'bek Boboyev, huquqshunos-advokat

**?** Talabaman. Ijarada yashovchi talabalar uchun ijara pullarining qancha miqdori to'lab beriladi? Shu haqda ma'lumot bersangiz.  
**Sherzodbek Ramazonov, Termiz shahri**

— O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi Farmoniga asosan, yotoqxon bilan qamrab olinmagan va o'ziga, shu jumladan ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli bo'lmagan uyda ijara yashaydigan davlat OTM talabalarining 60 foiziga ular tomonidan to'lanadigan oylik ijara to'lovining 50 foizi Davlat budjeti hisobidan qoplab beriladi. Ijara to'lovining qoplab beriladigan qismi Toshkent shahrida — BHMning 1 baravari (330 ming so'm), qolgan hududlarda — BHMning 0,5 baravaridan (165 ming so'mdan) oshmasligi lozim. Ijara pullari birinchi navbatda ehtiyojmand oila farzandlariga hamda o'rnak ko'rsatgan va faol talabalarga beriladi.  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Axborot xizmati

**?** Ishxonamdan ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnomani so'rasam, xodimga berish mumkin emas, deyishdi. Shu to'g'rimi?  
**Dilfuza Ikromova, Muzrabot tumani**

— Noto'g'ri. Mehnat kodeksining 117-moddasiga asosan, ish beruvchi tomonidan ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish haqidagi buyruqlar ularning ko'chirma nusxalari, mehnat daftarchasi yoki elektron mehnat daftarchasidan ko'chirma, ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar, hisoblangan hamda xodim tomonidan haqiqatan to'langan soliqlar va yig'imlar haqidagi ma'lumot, shuningdek, ish beruvchida ishlash davri to'g'risidagi ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni xodim arizasiga ko'ra 3 ish kunida bepul berilishi shart. Ushbu hujjatlarning ko'chirma nusxalari tashkilot rahbarining yoki boshqa vakolatli shaxsning imzosi hamda muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.  
Ulug'bek Boboyev, huquqshunos-advokat

**?** Ishim tufayli xorijga bir muddatga ketishim zarur. Bu vaqt oraliqida bankdan olgan kreditimni to'lash majburiyatini boshqa shaxsga o'tkazsam bo'ladimi?  
**Nargiza Abdullayeva, Toshkent shahri**

— Fuqarolik kodeksining 322-moddasiga asosan, qarzdor o'z qarzini boshqa shaxsga o'tkazishi mumkin. Faqat bunga kreditor (kredit bergan bank) ning roziligi kerak bo'ladi. Bunday holatda yangi qarzdor kreditor bilan dastlabki qarzdor o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan barcha e'tirozlarni kreditor talabiga qarshi qo'yishga haqli hisoblanadi. Ya'ni, bankdan kredit olgan shaxs unga kredit bergan bankka qanday e'tiroz bildirishi mumkin bo'lsa, uni qarzini to'lashni bo'yniga olayotgan ikkinchi shaxs ham shunday huquqqa ega bo'ladi.

**?** Iyul oyining boshida navbatdagi mehnat ta'tiliga chiqdim. Lekin xodimlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i «kompensatsiya» to'lanishini aytib, muddatidan ilgari majburan ishga chaqirib oldi. Uning bu harakati qonuniymi?  
**Yuliana Fatxullina, Farg'ona viloyati**

— Noqonuniy. Mehnat kodeksining 232-moddasiga asosan, ta'tilning istalgan vaqtida chaqirib olishga faqat xodimning roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Kodeksning 232-moddasi 2-qismiga asosan esa 18 yoshga to'lmagan xodimlarni, homilador ayollarni va mehnat sharoitlari o'ta zararli va o'ta og'ir bo'lgan xodimlarni yillik mehnat ta'tilidan chaqirib olishga umuman yo'l qo'yilmaydi.  
Lex.uz qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi

**?** Oliy ta'lim muassasasida o'qiyman. O'qishimni boshqa OTMga o'tkazmoqchiman. Hujjatlar qabul qachondan boshlanadi? Buning uchun kimga va qayerga murojaat qilishim kerak? Shu haqda ma'lumot bersangiz.  
**Alibek Karimov, Namangan viloyati**

— Talabalar o'qishini ko'chirishi uchun arizalar qabuli 15-iyuldan boshlandi va 5-avgustga qadar davom etadi. Arizalar davlat oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun transfer.edu.uz, xorijiy va nodavlat OTM talabalari uchun my.uzmb.uz platformalari orqali qabul qilinadi.  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Axborot xizmati

### ✓ O'git

Me'mor Sinon mashhur Salimiya minoralarini qurarkan, bir to'da bolalar chug'urlashib, nimanidir ko'rsatayotganlarini ko'rib qolibdi. U larga yaqinlashib: — Nima gap, — deb so'rabdi. — Amaki, — deyishibdi ular, — shu minorangiz biroz qiyshayibdi. — Ha, unday bo'lsa, hozir minorani arqon bilan torttirib to'g'rilaymiz. Sizlar, qarab turinglar, — deb arqon keltirishni buyuribdi. Me'mor Sinon, to bolalar to'g'ri bo'ldi deyishmaguncha, minorani bir arqon bilan torttiraveribdi. Bolalar, to'g'ri bo'ldi, deyishgach

to'xtatibdi. Shu orada bir kishi kelib: — Usta, bu arqon shunday katta minoraga hech bir ta'sir qilmaydigan yaxshi bilasiz. Nega endi bolalarning gapiga kirib bunday qildingiz, — deganida, me'mor javob beribdi: — Shunday qilmasam, bu churvaqalar shahar bo'ylab minoraga qiyshiq, degan gap tarqatishadi. Minoraning egri emasligiga hech kimni ishonitrolmaymiz. Endi esa, minoraga egri edi, arqon bilan torttirib to'g'rilatdik, degan gap tarqatishadi. Bu gapga esa aqli bor odam ishonmaydi!



«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**  
Alisher QODIROV — kengash raisi

Akmal SAIDOV,  
Abror PO'LATOV,  
Amriddin BERDIMURODOV,  
Akmal JUMABOYEV,  
Bahodir MAMATXONOV,  
Ilhom ABDULLAYEV,  
Ibrohim G'OFUROV,  
Iroda DADAJONOVA,  
Minhojiddin MIRZO,  
Nodir MUXTOROV,

Odiljon TOJIYEV,  
Olim O'SAROV,  
Otabek JIYANBOYEV,  
Ozodbek NAZARBEKOV,  
Ortiqali QOZOQOV,  
Feruza MUHAMMADJANOVA,  
Xurshid DO'STMUHAMMAD,  
Sherzodxon QUDRATXO'JA,  
Shavkat SHARIPOV,  
Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:  
Mirodil ABDURAHMONOV

**TAHRIRIYAT MANZILI:**

Toshkent shahri,  
Uchtepa tumani,  
Maqsud Shayxzoda ko'chasi, 1 A-uy.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

**NAVBATCHI MUHARRIRLAR:**  
Ravshan MAHMUDOV,  
Mabuba KARIMOVA  
NASHR UCHUN MAS'UL:  
Ma'murjon YO'LDOSHEV  
**NAVBATCHI:**  
Feruza XODJAYEVA  
**DIZAYN GURUHI:**  
Asilbek QUDRATOV,  
Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:  
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.  
Korxonaning manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.  
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi — 7 331.  
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.  
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 2 bosma taboq  
Buyurtma: G — 716  
Bosishga topshirish vaqti 21:00.  
Topshirildi 3:50

ISSN 2010-7714

123456